

**Muvaffaqiyat**

**Omad va muvaffaqiyat sirlari**

# **Dunyoning eng buyuk savdogari**



**OG MANDINO**

MOTIVATIONALALUZ

## BIRINCHI QISM

Xafid bronzadan ishlangan oynaning oldida to'xtab o'z aksini tomosha qildi-yu, asta shivirladi. "Faqat ko'zlargina o'z yoshligini saqlab qolibdi",- keyin orqasiga aylandi-yu, zalning burchagiga oxista yurib ketti. Kumush va va oltin suvi yugurtirilib bezatilgan shiftlarni ushlab turgan, qora daraxtdan qilingan ustunlarning yonidan, esa fil suyagidan va qimmatbaho daraxtlardan ishlangan naqshinkor stollar yonidan oyoqlarini sudrab o'tib bordi. Yumshoq o'rindiqlarda va devorlardan toshbaqa suyagidan ishlanib, qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan zebuziynatlar tovlanib, ko'zni qamashtirar edi. Marmar favvora atrofini bronza idishdagi ulkan palmalar o'rab olgan, qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan guldonlar, ichidagi gullar bilan go'zallikda musobaqalashayotgandek edi. Bu saroyga qadam ranjida qilgan har bir odam ushbu hashamatli maskanning haqiqiy egasi badavlat odam ekanligiga shubha qilmasdi. Chol yopiq bog'dan o'tib, anchagina katta bo'lgan omborxonasiga kirdi. Kiraverishda uni bosh xazinaboni Erasmus kutib turardi.

-Assalomu alaykum, xo'jayin.

Xafid bosh irg'adi-yu, o'z yo'lida davom etdi. Har xil noxush hayollar iskanjasida bo'lgan Erasmus uning ketidan borardi. Uni xo'jayinning bu yerda uchrashuv tayinlagani sarosimaga solib qo'ygan edi. Yangi keltirilgan mollar solingan aravalarning yonida Xafid bir zum to'xtab o'tdi. Xizmatchilar mollarni aravadan tushurib, sanab keyin

omborxonalariga joylashtirayotgan edilar. Bu yerda nafis matolar jun; pergament; asal; O'rta Osiyoning yog'i va gilamlari, shu yerda ishlab chiqarilgan shisha va malham, anjir va yong'oq; Palmiradan keltirilgan mato va dorilar; Arabistondan keltirilgan ziravor va qimmatbaho toshlar; don, qog'oz va Misrdan keltirilgan qurilish anjomlari; Vavilondan keltirilgan kashtalar; Rimdan keltirilgan san'at haykallari bor edi. Havoni malhamning xidi tutgan edi, lekin qari Xafidning sezgir burni bu havodan shirin mayizning, olmaning, pishloq va anjirning yoqimli hidini ilg'ab olgan edi.

Nihoyat u Erasmusga o'girildi.

-Qariya, hozir g'aznada qancha pul bor?

Erasmusning quti o'chdi.

-Hammasi bo'libmi xo'jayin?

-XA, hammasi bo'lib.

-Uzil-kesil hisoblab ko'rganim yo'g'-u, lekin taxminimcha yetti million oltin talantga yetsa kerak,

-Omborxonadagi va do'konlardagi hamma mahsulotlarni oltinga aylantirganda qancha bo'ladi?

-Bu yilgi hisob-kitob tugagani yo'q lekin chamamda yana uch million talant bo'lar.

Xafid boshini silkib qo'ydi.

-Boshqa mol sotib olma. Aksincha, menga tegishli bo'lgan hamma mol-u davlatni sotishga tayyorla, men hamma narsamni oltinga aylantirmoqchiman.

Xazinabon angrayib qolganidan bir og'iz ham so'z aytolmas edi. Nihoyat u o'ziga kelib gap boshladi:

-Men sizni tushuna olmayapman, xo'jayin. Axir bu yil biz uchun eng omadli yil bo'lgan edi-ku. Har bir do'konchi o'tgan yilgidan ancha ko'p foyda qilgani haqida xisobot berdi. Rim legionerlari ham bizning xaridorlarimizga aylandilar. Ular bizdan ikki hafta ichida ikki yuzta arab arg'umog'ini sotib olishdi. Meni kechiring xo'jayin lekin sizning bu buyrug'ingizni tushuna olmayapman...

Xafid jilmayib, asta Erasmusning qo'lini siladi.

-Mening aziz do'stim, mening senga bergan eng birinchi buyrug'imni eslay olasanmi?

Erasmusning tundlashgan yuzi asta-sekin yorisha boshladi.

**-Sen menga har yilgi foydamizning teng yarmini kambag'allarga bo'lib berishni buyurgansan.**

-O'sha vaqtda sen meni aqldan ozgan deb o'ylamadingmi?

-Yomon fikrlar miyyamga kelgani rost, xo'jayin.

Xafid aravadagi mollarni ko'rsatib, dedi:

-Xavotirlaring o'rinsiz ekanligini endi tushungandirsan?

-Xa, xo'jayin.

-Vaholanki, shunday ekan, mening hozirgi buyrug'imning ham tagiga yetmasdan meni ayblama. Men endi qaridim, ko'p narsaning endi menga keragi yo'q. Mening sevgilim Lisha ko'p yillik baxtli hayotdan keyin meni tark etdi. Shuning uchun men boyligimni shu shaharning kambag'allariga tarqatib bermoqchiman. Men faqat ehtiyojlarimga yarasha pul va buyumlarni qoldirmoqchiman. Do'konlarimda savdo qiluvchi odamlarga shu do'konlarni sovg'a qilish haqidagi xujjatlarni tayyorla. Shu bilan birgalikda ko'p yillik xizmatlari uchun besh ming oltin tangani ham ularga bo'lib ber. Ular bu pullarni do'konlarini yangi mol bilan to'ldirishga sarflasinlar.

Erasmus gapirish uchun og'iz juftladi, lekin Xafid uni to'xtatdi.

-Bu so'zlarim senga yoqmadimi?

Xazinabon boshini quyi solganicha jilmayishga harakat qildi.

-Yo'q xo'jayin, men sening maqsadingni anglay olmayapman. Sen hayot bilan vidolashayotgan kimsalarga o'xshab gapiryapsan.

-Men haqimda o'zimdanda ko'proq qayg'urish-bu sening hislatlaringdan biri, azizim Erasmus. Bizning savdo imperiyamiz tarqatilgandan keyin, o'zing bilan nima bo'lishini ham o'ylaysanmi?

-Biz ko'p yillardan beri do'st edik. Qanday qilib men faqat o'zim haqimda o'ylashim mumkin?

Xafid do'stini quchoqlab olganicha, unga javob berdi:

-Buning keragi ham yo'q. Mening senga iltimosim bor. Sen ellik ming oltin tangani o'z nomingga rasmiylashtir va ma'lum muddatgacha mening yonimda qol. Men ko'p yillar oldin bergan va'damning ustidan chiqishim kerak. Bu vazifani ado etgandan keyin men senga shu saroyni va omborxonani meros qilib qoldiraman. O'zim esa Lishaning visoliga yetish uchun rixlatga ravona bo'laman.

Qari xisobchi dovdiragancha xo'jayiniga qarar edi.

-Ellik ming oltin tanga, saroy, omborxona.... Men bunga noloyiqman...

Xafid bosh irg'adi.

-Sen bilan do'stligimizni men hayotning eng buyuk in'omi deb hisoblayman. Men senga hozir berayotgan narsalarim, **SENING CHEKSIZ SADOQATING** oldida arzimastan bir match. Sen faqat o'zing uchun emas, balki boshqalar uchun ham yashash san'atini to'la o'rganding. Bu hislating seni boshqalar orasidan ajratib turadi. Mening rejalarimni tezroq amalga oshishini istayman. Vaqt- bu mening qo'limda bo'lgan eng qimmatbaho buyum va mening hayotimda u asta-sekin kamayib ketyabdi.

Erasmus ko'zlaridagi yoshni yashirish uchun orqasiga o'girildi va titrayotgan ovozda savol berdi:

-Sen qanday va'dani bajarishing lozim? Biz xuddi aka- ukadek bo'lsak ham, hech qachon bu haqida eshitmagan ekanman.

Xafid kulimsiradi.

-Men sen bilan ertalabki vazifalaringni bajarganingdan so'ng uchrashaman va o'ttiz yildan beri yuragimda saqlagan sir bilan o'rtoqlashaman. Bu sirni mening suyuqli xotinimdan boshqa hech kim bilmas edi.

## IKKINCHI QISM

Tez orada Damashqdan qattiq qo'riqlanayotgan karvon yo'lga chiqdi. Bu karvonda savdogarlar uchun xujjatlar va ko'pmiqdorda oltin olib ketilayotgan edi. Djeppening Obed shahridan tortib, Petraning Reyel shahrigacha masofada joylashgan Xafidning do'konlarida uning ishdan chetga chiqqanligi haqida xabar va uning sovg'a-salomlari hammani hayratga soldi. Antipatris shahridagi do'konning yonida to'xtab, karvon o'z ishini yakunladi.

O'z davrining eng qudratli savdo imperiyasi o'z ishini tugatdi.

G'amga botgan Erasmus omborxonaning bo'shaganligi va do'konlarning peshtoqida Xafidning tantanavor bayroqlari hilpiramayotganligi to'g'risida xo'jayinga darak berishni buyurdi. Xabarchi qaytib keldi va Erasmusni xo'jayin fors favvorasi yonida kutayotganini yetkazdi.

Do'stiga tikilib turgan Xafid so'radi:



-Hammasi tayyormi?

-Tayyor.

-Xafa bo'lma mening mehribon do'stim va ortimdan yur.

Xafid Erasmusni marmar zinalar oldiga uyning orqa qismidan olib borar ekan, boshmoqlarining taqillashi butun zalga tarqalar edi. Zinadan ko'tarilayotgan Erasmus balanddagi xonaning eshigi yonida doimo turadigan soqchining yo'qligiga ahamiyat berdi. Yuqoriga ko'tarilgach, Xafid belbog'idan kichkina kalitni oldi va ancha chiranib, og'ir, eman daraxtidan yasalgan eshikni ochdi. Bo'sag'ada ikkilanib turgan Erasmusga "kir" deb imo qildi. Xazinabon 30 yildan buyon hech kimga kitishga ruhsat berilmagan xonaga qo'rqa pisa kirdi.

Minorachilarning tuynugidan xonag g'ira-shira yorug'lik tushib turgan edi. Erasmus bu g'ira shiralikka ko'zi o'rganguncha Xafidning qo'lini qo'yvormadi. Nim tabassum qilganicha Xafid xonani ko'zdan kechirayotgan Erasmusga qarab turardi. Burchakdagi kedr daraxtidan qingan sandiqchani hisobga olmaganda xonada hech narsa yo'q edi.

-Ajablanayapsanmi, Erasmus?

-Nima deyishga ham hayronman, xo'jayin.

-Xonaning jihozlari yoqdimi? Bu xona hamma uchun jumboq edi. Bu xonaning sirlari, uning shu qadar qo'riqlanishi seni hayron qoldirmas edimi?

Erasmus boshini silkitdi.

-Bubsen aytganday. Shu yillar davomida bu minorachadagi xona haqida juda ko'p mish-mishlar eshitdim.

-Xa do'stim, ularning anchasini o'zim ham eshitdim. Bu xonada oltin to'la idishlar, yovvoyi hayvonlar va kamyob qushlar saqlanadi degan gap so'zlar ham bo'lgan. Gilam sotuvchi fors esa, bu yerda mening haramim joylashgan, deb aytgan edi. Lisha esa meni kanizaklar qurshovida tasavvur qilib rosa kulgan edi. Lekin sen ko'rib turipsan-ki, bu yerda shu qutidan boshqa hech vaqo yo'q. Yaqinroq kel.

Erkaklar sandiqqa qarab engashdilar va Xafid sandiqni o'rab turgan charm tasmalarni bo'shata boshladi. U kedrning hushbo'y hidini hidlagancha, astalik bilan qopqoqni ochdi. Erasmus xo'jayinning yelkasi osha sandiqning ichiga ko'z tashladi. Keyin esa hayron bo'lib xo'jayiniga qaradi. Yana sandiqning ichiga tikildi. U yerda charmdan tayyorlangan o'rmalardan boshqa hech vaqo yo'q edi.

Xafid ehtiyotkorlik bilan bitta o'ramani oldi-da ko'zlarini yumgancha uni ko'kragiga bosdi. Uning ko'zlarida xotirjamlik ifodasi paydo bo'ldi va ajinlari tekislashdi. So'ngra u o'rnidan turdi va sandiqni ko'rsatib dedi:

-Agar bu xona shiftigacha olmoslar bilan to'ldirilgan bo'lsa ham, ularning qiymati mana shu qutining ichidagi narsalar bilan

chambarchas bog'liq. Shu o'ramalarnimenga ishonib topshirgan donishmanddan men butun umr qarzdorman.

Xafidning gaplaridan hayratga tushgan Erasmus orqaga tisarilib so'radi:

-Sen aytgan sir shumi, Sen bergan va'da shular bilan bog'liqmi?

-Ikkala savolingga ham "ha" deb javob beraman.

Erasmus peshonasidan chiqqan terni artgancha Xafidga ishonchsiz qaradi.

-Sen olmoslardan ham qimmat degan varaqlarda nima yozilgan?

-Bu o'ramalarda tushunishi oson bo'lishi uchun ajib tilda bitilgan qonun qoidalar yozilgan. Savdogarlik san'atini chuqur o'rganish-mana shu o'ramalarning har bir so'zini chuqur o'zlashtirishdir. Bu qonun-qoidalarni o'zlashtirgan har bir inson o'zi uchun xohlagancha mol-dunyo yig'lishi mumkin.

Erasmus qo'rquv bilan eski o'ramalarga qaradi.

-Sening boyligingday boylik ham-a?

-Xohlasa bundan ham ortiq.

Sen o'ramalarda savdo qoidalari bitilgan deb ayttingmi?

-Xa lekin bittasida bu qoidalar yozmagan, vaholanki o'sha o'rama birinchi bo'lib o'qilishi kerak. O'ramalarni tartib raqamiga qarab o'qiladi. Birinchi o'ramada shunday sir borki, bu sirni faqat

bir necha donishmandlar biladi xolos. Birinchi o'ramani o'zlashtirgan odamgina qolgan o'ramalardagi sir asrorlarni bila oladi.

- Demak, bu ishni hamma ham uddalay olmas ekanda?

-Yo'q, bu aslida qiyin ish emas. Bu qonunlar odamdan halollikni va e'tiborni talab qiladi.

Har bir qoida o'sha odamning odatiga, har bir qoida esa uning bir bo'lagiga aylanishi kerak.

Erasmus egilib sandiqdan bitta o'ramani oldi-da, uni avaylab ushlagancha Xafiddan so'radi:

-Kechirasan xo'jayin, nima uchun sen bu qoidalarni boshqalarga o'rgatmading, ayniqsa qo'l ostingda uzoq yillar ishlaganlarga? Sen doimo bag'oyat oliyjanob eding-ku, nima uchun senga xizmat qilayotgan odamlarga shu o'ramalarni o'qishga bermading, ularning badavlat bo'lishiga imkon yaratmading? Bu qimmatbaho bilimlardan keyin hamma sotuvchilaring bundan ham yaxshi ishlaydigan bo'lar edi. Nima uchun sen bu qoidalarni sir saqlading?

-Bu mening ixtiyorimda emas edi. Ko'p yillar oldin bu o'ramalarni menga berganlarida, men buni sir saqlash haqida qasamyod qilganman. Bu sirni men faqat bir kishiga aytishim lozim edi. Men bu g'alati talabni o'sha paytda tushunganim yo'q edi. Menga bu sirni vaqti soati kelguncha yashirish taginlangan. Mendanda ko'p qiynalgan odam yo'limda paydo bo'ladi va men

shu o'ramalarni unga topshiraman. Bu odamning kimligi haqida menga belgi beriladi. Hatto shu odam nima uchun mening oldimga kelganini bilmasa ham. Men chidam va sabr bilan bu kunni kutayapman va menga ishonib topshirilgan bilimlardan foydalanayapman. Shu bilimlar yordamida men "Dunyodagi eng buyuk savdogar" degan nom oldim. Sen befoyda va g'alati deb o'ylagan harakatlarni qilib asta-sekin muvaffaqiyat cho'qqilariga chiqdim. Men hamma ishlarimni hal qilishda shu o'rmalardagi maslahatlarga amal qildim. Natijada shuncha ko'p oltin ishlab topdim. Men sen o'ylaganchalik dono emasman va bor-yo'g'i shu bilimlardan foydalandim.

- Sen o'sha odam kelishiga haliyam ishonasanmi, axir shuncha yillar o'tib ketdi oradan?

-Xa.

Xafid astagina o'ramalarni sandiqqa soldi va sandiqni qulfladi. Erasmusdan so'radi:

- Do'stim sen o'sha vaqt kelguncha men bilan qolasanmi?

Xazinabon yaqin kelib, qo'lini Xafidga uzatdi, boshini qimirlatdi-yu, uydan chiqib ketdi. Xafid tasmalarni o'rab, o'rnidan turdi va minorachaga qarab ketdi.

Sharqdan esayotgan shamol uning yuzini silab o'tardi. Bu shamol unga ko'llarning va cho'lning hidini keltirayotgan edi. Damashqning uylariga qarab kulimsirab turgan cholning hayoli o'tmishga uchib ketdi.

## UCHINCHI QISM

Qish edi. Moyli tog'da sovuq hukmron. Ierussalimdan qurbonlikka so'yilgan va pishirilayotgan mollarning, tutantiriqlarning hidi kelib turardi. Bu og'ir hid tog'da o'sayotgan o'tkir xidli daraxtlarning bo'ylari bilan aralashib ketgan edi. Palmiralik Patosning katta karvoni Vifaniyadan balandlikda joylashgan vodiya dam olish uchun to'xtadi. Bu kechki vaqtda hammayoq jim-jit edi, hatto buyuk savdogarning sevimli toychog'i ham yong'oq daraxtining barglarini yeb bo'lib, lavr daraxtining yonida tek turib qolgan edi. Yovvoyi o'simliklarning orasidan sovuqdan titrayotgan tuyalar va eshaklar ko'rinib turardi. Karvonning odamlari palatkalarda joylashib, allaqachon uyquga ketgan edi. Faqat ikkita soqchi lagerni qo'riqlab uyoqdan- buyoqqa yurgan edi. Bitta palatkani ichida g'azabga mingan Patros undan -bundan borib kelardi. Bazida to'xtab boshini silkitib, kiraverishda tizzasida o'tirgan yigitga qarab qo'yardi. Nihoyat, zardo'zi gilamga cho'kkalab o'tirdi va imo bilan yigitni chaqirdi.

- Xafid sen men uchun o'g'limdaysan. Men sening gaplaringdan esankirab qoldim. Sen ishingdan norozimisan?

Yigit ko'zini gilamdan uzmasdi.

-Yo'q , xo'jayin.

- Karvonimiz kun sayin kattalashib borayotgani uchun sen hayvonlarga qarashga qiynalyapsanmi?

- Yo'q , xo'jayin.

- Unda o'zingni g'alati iltimosingni takrorla va tushuntirib ber.

- Men sening do'koningda sotuvchi bo'lib ishlamoqchiman, cho'pon bo'lib emas. Men Xadad, Simon, Saleb va boshqalarday karvonboshi bo'lmoqchiman. Ular mol to'la tuyalar bilan o'zga yurtlarga boradilar va qaytishda hamyonlari to'la oltin bo'ladi. Men ham hayotda o'z o'rnimni topmoqchiman. Men molboqarligimcha qolsam hayotda hech kimman, lekin sening do'kondoring bo'lsam, omad va davlat topishim mumkin.

- Sen buni qayerdan bilasan?

- Ko'p martalab sen bu so'zlarni takrorlaganingda eshitganman. "Qashshoqning badavlat odamga aylanishi uchun savdogarlikdan yaxshi ish yo'q", - deb ko'p marotaba aytgansan.

Patros avvaliga rozi bo'lmoqchi bo'ldi-yu, lekin yana o'ylanib qoldi. Keyin yigitni savolga tutdi.

- Sen Xadad va boshqa savdogarlarday ishni yurita olishingga ishonasanmi?

Xafid cholg'a diqqat bilan qaradi va javob berdi:

- Saleb senga ko'pincha shikoyat qilganida, sening javobingni eshitganman. Agar savdoning qonun qoidalariga javob bersang, xohlagan molni qisqa vaqtda sotish mumkin degansan. Agar Salebday unchalik aqlli bo'lmagan odam bu ishni uddalasa, nega men bu narsani qila olmasligim mumkin?

- Agar sen bu bilimni egallasang, xayotdagi maqsading qanday bo'ladi?

Xafid bir oz o'ylanib turib javob berdi.

- Bu yurtda men ko'p odamlardan seni dunyodagi eng buyuk savdogar deb eshitganman. Sen savdogarlik mahorating bilan dunyoda tengi yo'q savdo imperiyasini barpo qilding. Mening maqsadim esa buyuklikda sendan ham o'zib ketish, eng badavlat odamga aylanish va olamshumul savdogar bo'lish.

Patos o'zini orqaga tashlab Xafidning qorachadan kelgan yuziga tikildi. Yigitning kiyimidan molxonaning hidi anqir, lekin uning xatti-xarakatlarida itoatkorlik yo'q edi.

-Sen buncha davlat va u keltiradigan qudratni nimaga sarflaysan?

- Men senday qilaman. Menimng oilam eng yaxshi narsalar bilan ta'minlanadi, qolganini esa muxtoj odamlarga tarqataman.

Patos boshini egdi.

- Boylik hech qachon insonning hayotiy maqsadi bo'lmasligi kerak. Sen chiroyli gapirding, ammo bu bor yo'g'i so'zlar. Haqiqiy boylik yurakda bo'ladi- xamyonda emas.

Xafid chekinmadi.

-Taqsirim sen badavlat emasmisan?

Qariya Xafidning dovyurakligidan quvondi.



-Xafid boylikka kelganda, men va Irod saroyining oldidagi gadoning faqat bitta farqi bor. Gado doimo o'zining kelgusi ovqati haqida o'ylasa, men doimo o'zimning eng ohirgi ovqatimni o'ylayman. Yo'q, o'g'lim boylikni ixtiyor qilma va faqatgina badavlat bo'lish uchun mehnat qilma. Undan ko'ra baxtli bo'lishga intilgin, sevgin va sevilgin lekin bundan ham ayvalroq-beg'am va ruhan uyg'unlikda bo'l.

Xafid yana chekinmadi.

- Lekin bu narsalarga oltinsiz erishib bo'lmaydi. Kim qashshoqlikda tinch yashay oladi? Qorning och bo'lsa qanday qilib baxtli bo'lish mumkin? Oilangga muhabbatingni qanday izxor qilasan, agar ularning ovqati bilan, kiyim-kechak bilan va boshpana bilan ta'minlay olmasang? Mening badavlat bo'lishni xohlashimning nimasi yomon? Kambag'allik faqat darveshga yarashadi, chunki u yolg'iz yashaydi va faqat Allohga xizmat qiladi. Men uchun esa kambag'allik -bu yoki mahoratsizlik, yoki izzat nafsning yo'qligini bildiradi. Menda bu narsalarning ikkalasi ham mavjud.

Patos qoshlarini chimirdi.

-Qayerdan keldi buncha intilish? Sen oila haqida gapirasan, sening hech kimning yo'q-ku? Ota-onang vabodan o'lgach men seni asrab olganman.

Xafidning oftobda qoraygan yuzlari lovullab ketdi.

-Biz yo'lda Xevronda to'xtaganimizda, men Kalmexning qizini uchratdim. U..., U...

-O, haqiqat ro'yobga chiqa boshladi. Oliyjanob maqsad emas, sevgi mening molboqarimni dunyoni zabt etmoqchi bo'lgan baxodirga aylantiribdi-da. Kalmeh juda badavlat odam. Uning qizi va molboqar? Hech qachon Lekin uning qizi boy va yosh savdogar..... O. bu boshqa gap. Juda yaxshi, mening yosh pahlavonim, men senga savdogar bo'lishingga yordam beraman.

Xafid tizzasiga yiqilib Patrosning etagini ushladi.

-Taqsirim, qanday so'zlar bilan sizga minnatdorchilik bildiray?

Patros yigitning qo'lidan yulqinib chiqdi.

- Minnatdorchiliging o'zingga buyursin. Sen shunday katta tog'ni ag'darishing kerak-ki, maqsadingga yetish uchun. Mening yordamim buning oldida bir zarrachaga o'xshaydi.

Xafidning quvonchi bir zum so'ndi va u savol berdi:

- Sen menga savdoning qonun qoidalarini o'rgatmaysanmi?

-Men, yo'q! Men seni erkalatmadim shuning uchun sening yoshliging yengil bo'lmadi. Asrandi o'g'limni molboqar qilganim uchun, odamlar meni ko'p ayblashdi. Agar sening yuragingda haqiqiy olov yonayotgan bo'lsa, u bir kun kelib ro'yobga chiqadi... va o'sha kun kelganda, sen hamma og'ir kunlaring evaziga boshqalardan ko'ra ko'proq in'om olasan. Sening ohirgi iltimosing meni quvontirdi. Chunki sening ko'zlaringdan o't chaqnayapti. Bu

juda yaxshi, lekin endi sen gaplaring chin ekanligini isbotla. Alalxusus, mening tutgan yo'lim o'zini oqladi.

Xafid jim turardi, Qariya so'zida davom etdi:

- Sen avvalambor menga, keyin esa o'zingga savdogar hayotining uddasidan chiqishingni isbotla, chunki sen mashaqqatli yo'lni tanlading. Xa, sen mendan ko'p marotaba eshitgansan. **Muvaffaqiyatga erishgan inson uchun ulkan in'omlar mavjud. lekin u shuning uchun ham ulkanki, kamdan -kam odamlar bu cho'qqiga chiqa oladi. Ko'plar marraga yaqin qolganda tushkunlikka tushib yo'ldan qaytadilar.** Aynan o'sha paytda ular katta mol dunyoni qo'lga kiritish uchun kerak bo'ladigan barcha hislatlarga ega bo'lgan bo'ladilar. Ko'pchilik odamlar yo'ldagi to'siqlardan qo'rqadilar, ularni dushman deb hisoblaydilar. Xolbuki, bu to'siqlar ularning do'stlari va yordamchilaridir. Omadga erishishdan oldin to'siqlarni yengib o'tish kerak. Chunki hamma buyuk ishlarda bo'lgani kabi, savdoda ham ko'p kurashlardan va mag'lubiyatlardan o'tgandan keyingina maqsadga erishish mumkin. Har bir omadsizlikdan keyin sening kuching va ustomonliging, sening mardliging va chidamliliging, sening mahorating va o'zingga ishonching ortib boraveradi. Har bir to'siq seni yo muvaffaqiyatga yo mag'lubiyatga olib boradi. Har bir omadsizlik - bu oldinga yurishga imkoniyat, sen undan yuz o'girsang - sen kelajagingdan yuz o'girasan.

-Yigit gapirmoqchi bo'lib og'iz juftladi, lekin chol gapida davom etdi:

-Bundan tashqari, sen shunday ishni tanladingki, u seni boshqa ishlardan ko'ra ko'proq yolg'izlik sari yetaklaydi. Hatto soliqchilar ham quyosh botguncha uylariga qaytadilar, rim legionerlarining uy deb hisoblaydigan kazarmalari bor. Sen esa ko'p tunlarni uyingdan va yaqinlaringdan yiroqda o'tkazasan. Kechqurunlari notanish uyning oldidan o'tganingda chiroq yorug'ida dasturxon atrofida to'plangan oila a'zolarini ko'rganda, sen yolg'izligingni yanada ko'proq his qilasan. Mana shu daqidalarda seni har xil yomon fikrlar chulg'ab ola boshlaydi, - davom etdi Patos, -Sen mana shu fikrlarni qanday kutib olishingdan kelajaging aniq bo'ladi. Yo'llarda bir o'zing va xachiring yolg'iz bo'lganlaringizda g'alati va qo'rqinchli hislarni sezasan. Ba'zida orzularimizni unutamiz, bolalarday himoyasiz bo'lib qolamiz va buning natijasida savdoga layoqatli ming-ming kishilar o'z kasbini o'zgartiradi.

-Men seni tushundim va nasihatlaringni yodda saqlayman.

- Unday bo'lsa boshlaymiz. Men senga boshqa ko'rsatma bermayman. Sen xuddi pishmagan anjirga o'xshaysan. Anjir pishmagan bo'lsa uni anjir deb bo'lmaydi. Sen ham bilimlaringni tekshirmaguncha savdogar deb atalmaysan.

- Men ishni nimadan boshlay?

- Sen ertalab omborxonaga borib Silvioni topasan. U senga eng yaxshi yopinchiqlardan birini beradi, unda choklar yo'q, echki terisi va juni suvni o'tkazmaydi. Madda o'simligining ildizidan tayyorlangan qizil bo'yoq sira o'chmaydi. Etagingning ichki tomoniga kichkina yulduzcha tikilgan, bu Tolaning belgisi uning ustaxonasida dunyodagi eng yaxshi yopinchiqlar tikiladi. Yulduzchaning yonida mening belgim to'rtburchak ichida aylana. Bu ikki belgini mamlakatda hamma taniydi va hurmat qiladi. Biz minglab bunday yopinchiqlarni sotganmiz.

Yahudiylar bilan allaqachondan beri muloqotda bo'lmaganman, lekin ular bu kiyimni abeyyah deb atashlarini bilaman.

-Eshagingni va yopinchiqni olginda, pastga- Vifleemga tush. Bizning birorta ham sotuvchimiz u yerga kirgani yo'q. Ular u yerga kirishni hayollariga ham keltirmaydilar, chunki ular bu yerdagi xalqning kambag'al ekanligini biladilar. Lekin bundan bir necha yillar avval u yerning cho'ponlariga yuzlab yopinchiqlarni sotganman. Sen to'rtburchakni sotmaguningcha Vifleemda qolgin.

Xafid hayajonini yashirgancha savol berdi:

-Taqsim men bu yopinchiqni necha pulga sotay?

-Kitobda sening nomingga bitta kumush dinariy qarz yozib qo'yaman. Kelganingdan keyin menga shu pulni berasan. Bundan ortig'ini o'zingga mukofot tarzida olib qol. Demak, sen narxni o'zing belgilaysan. Sen bozorda savdo qilishing mumkin yoki

uyma-uy kirib chiqishing mumkin. Shaharda mingtaga yaqin uy bor va bitta yopinchiqni u yerda sotishing mumkindir.

Xafid rozi bo'ldi u ertangi kun haqida o'ylayotgan edi. Patos uning yelkasiga qo'lini qo'ydi.

-Qaytib kelguningcha sening o'rningga hech kimni qo'ymayman. Agar senga savdo ishi yoqmasa men seni tushunaman va sen bundan uyalma. **Hech qachon omadsizlikdan uyalma, chunki faqat hech qachon harakat qilmagan odamgina hech qachon omadsizlikka uchramaydi.** Sen qaytib kelganindan keyin men sen bilan suhbatlashaman, va shu suhbatdan keyin men senga yordam berish yoki yo'qligini hal qilaman.

Xafid ta'zim qildi va eshakka qarab yurdi, lekin chol hali so'zini tugatmagan edi.

- O'g'lim bir gapni doimo yodingda saqla yangi hayotga kirmoqchi bo'lsang. Bu o'gitni yodingda saqlasang seni birorta omadsizlik tushkunlikka tushira olmaydi.

Xafid kutardi:

- Eshitaman xo'jayin!

**-Qaroring qatiy bo'lsa seni birorta ham omadsizlik yenga olmaydi!**

Patos yigitga yaqinlashib so'radi.

-Sen mening oxirgi gaplarimni tushundingmi?

- Xa, xo'jayin.

- Unda bu so'zlarni takrorla-chi!

- **Qarorim qatiy bo'lsa, meni birorta ham omadsizlik meni yenga olmaydi!**

### **TO'RTINCHI QISM**

Xafid qo'lidagi nonning bir bo'lagini sindirib oldi va taqdir o'yinlari haqida o'yga toldi. Vifleemga kelganiga ertaga to'rt kun bo'ladi, lekin u olib kelgan yagona qizil yopinchiq haliyam toshga bog'lab qo'yilgan xo'tikchanning ustidagi xurjunda turipti. Shovqin suron hukm surayotgan tamaddixonada u g'amgin xolda ovqati chala yeyilgan likopchaga qarab turardi. Uni hamma savdogarlarga xos shubhalar qiynayotgan edi.

"Nima uchun bu odamlar menga quloq solmayptilar? Nima uchun ular men og'iz juftlamasimdan oq eshiklarni yopadilar? Nima uchun mening so'zlarim ularni qiziqitirmaydi? Nahotki bu shaharning odamlari shu darajada qashshoq? Men bu narsani oloqchiman lekin bunga pulim yo'q deydiganlarga men nima

deyishim kerak? Nima uchun ko'p odamlar boshqa kun kelishimni xohlaydi? Nima uchun boshqalar mollarini sota olyaptilar, men esa yo'q? Nima uchun men eshik yoniga kelsam qo'rqaman, va nima qilsam bu qo'rquvni yengaman? Balki men aytayotgan narx boshqalarnikidan qimmatdir?" U jahl bilan boshini silkitdi. Balki bu hayot uning uchun emasdir? Balki u doim molboqar bo'lib qolishi kerakdir va og'ir mehnati evaziga sariq chaqa olish uning taqdiridir. Agar u karvonga daromadsiz qaytib borsa, undan savdogar chiqarmidi? U yana o'z tuyalarining yonida paydo bo'lishni xohladi. Birozdan keyin u Lishani va uning qattiqqo'l otasini esladi va darhol shubhalariga chek qo'ydi. Bugun u yana dalada tunaydi, aks xolda mehmonxona uchun pul to'lashi kerak. Ertaga esa yana savdoga chiqadi. U shu darajada so'zamol bo'ladiki, odamlar yopinchiqni albatta sotib oladilar. U barvaqt turib bozordagi eng yaxshi joyni tanlaydi. Birorta yo'lovchini yonidan behudaga o'tkazib yubormaydi va moyli tog'ga hamyonida kumushlar bilan qaytadi. Xafid nonni yeb tugatar ekan xo'jayini Patros haqida o'ylar edi. Patros u bilan faxrlanadi, chunki u chekinmadi. Albatta, bor yo'g'i bitta yopinchiqni to'rt kunda sotish- bu katta muhlat. Lekin bu ish to'rt kunda tugasa ham yomon emas. Vaqti soati kelib Patrosdan bu ishni uch hatto ikki kunda qilishni o'rganadi. Tez vaqtlar ichida u mashhur savdogar bo'ladi. Xafid karvonsaroydan chiqib xo'tikchasining yoniga ketdi. Havo sovuq, oyoq ostidagi shoxshabbalar bosilganda chirsillab sinardi. Xafid bu tunni g'orda-xo'tikchasining oldida o'tkazishni rejalashtirdi. U ertangi kun



omadli bo'lishiga umid qilardi. Xafid hamma savdogarlar bu qishloqni nima uchun aylanib o'tishlarini endi tushundi. Ular bu yerning odamlari hech qachon hech narsa xarid qilmasliklari haqida gapirishardi. Unda Patros qanday qilib bu qishloqda yuzlab yopinchiqlarni sotgan ekan? Yo u zamonlar boshqa bo'lgan ekanmi? G'orda miltillagan nur ko'rinib turardi. Xafid qadamini tezlatdi. Agar u yerga o'g'ri kirgan bo'lsa, mollarni undan himoya qilish kerak. Xafid g'orga kirdi-yu, hotirjam bo'ldi. G'orning devoriga qistirilgan sham bir-biriga yaqin o'tirgan soqolli erkak va yoshgina ayolni yoritib turardi. Ichi o'yilgan toshning ichida chaqaloq uxlab yotardi. Bolani sovuqdan asrash uchun ayol ham erkak ham uning ustiga o'z yopinchiqlarini tashlab qo'ygan edilar. Erkak Xafidga bosh irg'ab qo'ydi, ayol esa bolaga yaqinroq surildi. Ikkisi ham jim edilar. Ayol sovuqdan dir-dir titrar, chunki kiyimlari yupun edi. Xafid mehr bilan chaqaloqqa qaradi va sevgilisi Lishani eslasi. Ayol yana titray boshladi, uning bu harakati Xafidni o'ziga keltirdi. U o'zini yana savdogarday his qila boshladi. Xo'tikning oldiga borib xurjunni yechib oldi-yu, ichidan yopinchiqni oldi. Qizil rang sham shulasida tovlanib turardi, Xafid yopinchiqning astarida Patros va Tolaning ramzlari - to'rtburchak ichidagi aylana va yulduzni ko'rdi. O'tgan uch kun ichida u bu kiyimni necha marta qo'lga oldi? Bu yopinchiqning har bir chizig'ini biladigandek tuyulardi unga. Xa, bu haqiqatdan ham ajoyib yopinchiq. Uni asrasa umrining ohirigacha xizmat qilishi mumkin. Xafid ko'zini yumib chuqur xo'rsindi. Keyin bolaning yonida tiz cho'kdi, astagina uning ustidagi

yopinchiqlarni olib ota-onasiga berdi. Keyin o'zining qimmatbaho yopinchig'ini bolaning ustiga tashlab qo'ydi. G'ordan chiqib ketgach ham Xafid yosh ayolning minnatdorchilik to'la ko'zlarini uzoq esladi. Uning boshi ustida eng yorqin yulduz nur sohib turardi, u bunday yulduzni hech qachon ko'rmagandi. Xafid ko'zlariga yosh to'lguncha unga qarab turdi, keyin og'ir xo'rsindi-yu, xo'tigi bilan Ierussalimga eltadigan yo'ldan karvon tomon yurib ketdi.

## **BESHINCHI QISM**

Xafid boshini quyi solgancha ketib borar, uning yo'lini yoritib borayotgan yulduz ham esidan chiqqan edi. Nima uchun bu axmoqona ishni qildi ekan? Axir u g'ordagi odamlarni tanimas edi-ku. Nimaga u yopinchiqni u odamlarga sotishga harakat qilmadi? Patrosga va boshqalarga nima deydi endi? Ular Xafidning ustidan rosa kulishsa kerak. Patrosga nima bahona qilsa ekan? Molni o'g'irlatdim desamikan? Patros ishonarmikan, axir bu mamlakatda qaroqchilar ko'pku. Aldovga ishondi ham deylik, lekin beparvoligi uchun koyimasmikan.? U birozdan keyin Gefsiman bog'iga yetib keldi. Xo'tigidan tushib karvonning boshigacha yayov bordi. Hammayoq xuddi kunduzgiday yop-yorug' edi. Qo'rqayotgan odamini o'sha yerda uchratdi: Patros

palatkaning yonida turgancha osmonga tikilib qolgandi. Yigit joyida qotib qoldi, lekin qariya uni ko'rgan edi. Hayajonga tushgan Patros Xafidning oldiga yaqin kelib so'radi:

-Sen to'g'ri Vifleemdan kelyapsanmi?

-Xa, taqsir

-Orqangdan yulduz seni kuzatib kelayotgani seni hayratga solmadimi?

- Men buni sezmadim taqsir.

-Sezmading? Vifleem uzra bu yulduz ikki soat oldin porlagan edi. O'shandan beri men shu yerda turipman. Men hech qachon bu rangdagi va hajmdagi yuzduzni ko'rmaganman. Keyin u asta harakatlanib bizning karvonning ustiga kelib to'xtadi. Endi bo'lsa u bizning boshimiz uzra qotib qoldi.

Patros yigitga yanayam yaqinlashib uning yuziga tikilib so'radi.

-Sen Vifleemda hech qanaqa g'ayrioddiy narsani ko'rmadingmi?

-Yo'q taqsir.

Qariya qoshlarini chimirib hayolga botdi.

-Umrimda bunday tunni ko'rmaganman va bunaqa holatni boshimdan kechirmaganman.

Xafid seskandi.

-Men ham bu tunni hech qachon unutmayman xo'jayin.

- O, menimcha bu tun nimadir sodir bo'ldi. Nega sen buncha kech qaytyapsan?

Xafid jim turardi. Qariya eshakka osilgan xurjunni urib qo'ydi.

-Bo'm-bo'sh!Mana nihoyat g'alaba. Mening palatkamga kir va sarguzashtlaringni menga aytib ber. Xudo tunni kunga aylantirgan vaqtda men uxlay olmayman. Sening hikoyang menga bir narsani aniqlashda yordam berar, nima uchun yulduz yosh cho'ponni kuzatib keldi?

Patros matrasga yotib oldi va ko'zlarini yumgancha Xafidning savdodagi omadsizliklari haqidagi uzundan uzoq hikoyasini tingladi. Nihoyat, Xafid hirillagan ovozda o'zining karvonsaroydagi shubhalari haqida ham so'zlab berdi. Patros uning so'zini bo'ldi.

-Xafid, boshingga kelgan hamma fikrlaringni so'zlab ber.

Yigit hamma gaplarini aytib bo'lgach, chol undan so'radi.

-Hamma shubhalarini yengishingga nima sabab bo'ldi.?

Xafid biroz o'ylanib turdida, javob berdi.

-Men faqat Kalmexning qizi haqida o'yladim. Karvonsaroyning isqirt xonasida o'tirib faqat uni o'yladim. Agar chekinsam uni hech qachon ko'ra olmasligimni o'yladim.

Xafidning ovozi titrab ketdi:

-Men baribir chekindim.

-Chekinding? Hech nimani tushunmayapman. Axir yopinchiq yo'q-ku.

Pichirlab Xafid cholga g'ordagi uchrashuv va chaqaloq haqida gapirib berdi. Darparda yarim ochiq bo'lgani uchun Patros gohida osmondagi yulduzga qarab qo'yardi. Xafid gapini tugatib endi piqillab yig'lab turardi. Bir ozdan keyin yigitning ovozi tindi va palatkaga jimlik cho'kdi. Xafid hatto boshini ko'tarishga qo'rqardi. Hammasi tugadi, u mag'lubiyatga uchradi, uning peshonadiga faqat molboqarlik bitilgan. Xafid palatkadan chiqib qochishdan o'zini zo'rg'a tiyib turardi. Shu payt u yelkasida buyuk savdogarning qo'lini sezdi va boshini ko'tarib Patrosning ko'zlariga boqdi.

-O'g'lim bu sayohat senga katta foyda keltirmabdi.

-Xa, taqsir.

-Menga esa keltirdi. Osmondagi yulduz mening ko'zlarimni ochdi. Palmeraga qaytganimizda hammasini senga tushuntirib beraman. Hozir esa senga bir taklifim bor.

-Eshitaman xo'jayin.

- Ertaga quyosh botguncha savdogarlarimiz karvonga qaytadilar va ularning ot-uloviga qarash kerak bo'ladi. Molboqarlik vazifangga qaytishni xohlamaysanmi?

Xafid jimgina o'rnidan turdi va xo'jayinga tazim qildi.

-Sening hamma gaplaringni so'zsiz bajaraman...., ishonchingni oqlay olmaganim uchun kechir.

- Bor ishlaringni qil sen bilan Palmerada ko'rishamiz.

Xafid palatkadan chiqqanda yulduz shulasi uning ko'zini qamashtirdi. U ko'zini ochganda Patros uni chaqirtirdi. Yigit palatkaga qaytib kirdi va cholning so'zlarini tinglashga chog'landi.

-Tinch uxla, sen mag'lubiyatga uchramading. Porloq yulduz tonggacha charaqlab turdi.

## **OLTINCHI QISM**

Karvonning Palmiradan qaytganiga ikki xafta bo'lgach Xafidni Patros chaqirtirdi. Xafid shosha-pisha xo'jayinning xonasiga yetib keldi va chol yotgan to'shakka yaqinlashdi. Patros ko'zlarini ochib zo'rg'a o'rnidan turdi. Uning yuzlari oriqlagan, qo'llarining tomiri bo'rtib chiqqan edi. Xafid bundan atigi o'n ikki kun oldin gapirgan odamga u sira o'xshamas edi. Karavotning chetiga omonatgina

o'tirgan yigitga Patros yaqinroq keldi. Uning hatto ovozi ham tamomila o'zgargan edi.

-O'g'lim, rejalarini qayta ko'rib chiqish uchun yetarlicha vaqting bor edi. Sen haliyam katta savdogar bo'lmoqchimisani?

-Xa, xo'jayin.

-Iloho shunday bo'lsin, men sen bilan ko'proq birga bo'lmoqchidim, lekin vaziyat boshqacha bo'ldi. Men o'zimni yaxshi savdogar deb hisoblasam ham, o'limdan pul bilan qutila olmayman. U har kuni meni poylaydi, huddi oshxonamiz yonidagi och ko'ppakday. Xuddi o'sha it kabi, o'lim ham biladi, bir kuni oshxonaning eshigi qarovsiz qoladi...

Cholni yo'tal tutdi, Xafid unga jim tikilib turardi. Nihoyat yo'talishdan to'xtab Patros hazingina jilmaydi:

-Bizning birga bo'lish vaqtimiz kamayib boryapti, shuning uchun boshlaymiz. Avvalambor karavotning ostidan kedr daraxtidan yasalgan kichkina sandiqchani ol.

Xafid engashib sandiqchani oldi va karavotning ustiga qo'ydi.

-Ancha yillar ilgari, axvolim molboqardan ham yomon bo'lgan paytlar. Men Sharq mamlakatidan kelgan sayohatchini ikki qaroqchidan qutqargan edim. U minnatdorchilik tariqasida menga sovg'a bermoqchi bo'ldi. Mening pulim ham, oilam ham yo'qligi sababli u meni o'z yurtiga taklif qildi va huddi o'z qarindoshiday kutib oldi. Yangi hayotga ancha ko'nikkanimdan

keyin u menga mana shu sandiqchani ko'rsatdi. Uning ichiga tartib raqamlari yozilgan o'nta pergament o'rama bor edi.

Birinchisida- o'qishning sirlari, qolganlarida esa- savdoda muvaffaqiyatga olib keluvchi qonun-qoidalar bitilgan edi. Kelgusi bir yil ichida men har kuni bu o'ramalardagi dono gaplarni ongimga singdirdim. Borib-borib bu matnlarni so'zma- so'z eslab qoldim. Ular mening qalbimning bir qismiga aylandi. Vanihoyat bir kuni men sandiqning ichidagi o'nta o'ramasi bilan, yelimplangan xat va ichida ellikta oltin tangasi bo'lgan hamyonni sovg'aga oldim. Men xatni uydan uzoqlashgandan keyin ochishim kerak edi. Men uy ichidagilar bilan xayrlashib Palmiradagi savdo yo'lga yetganimdan keyin xatni ochdim. Xatda men oltin tangalarni olgan bilimlarim asosida ishlatib yangi hayot boshlashim kerakligi haqida yozilgandi. **Men ishlab** topgan daromadlarimning teng yarmini kambag'allarga berishim shartligi ham aytib o'tilgandi. O'ramalarni vaqti-soati kelguncha asrashim va kezi kelganda ularni bu ishni davom ettiruvchi kishiga berishim kerak ekanligi ham takidlangan edi. Bu odamning kimligi haqida menga g'ayrioddiy belgi berilishi kerak edi.

Xafid yelkasini qisdi.

-Sizni tushunmayapman, xo'jayin.

-Hozir tushuntiraman. Men bu odamni ko'p yillardan beri kutaman. Shu yillar ichida olgan bilimlarimdan unumli foydalandim men bu kishining kelishidan umidimni uza



boshladim hamki sen Vifleemdan kelding. Bu o'ramalarni senga berishim kerak. Porloq yulduz seni kuzatib kelayotganini ko'rib buning ma'nosini tushunmoqchi bo'ldimu yana Xudoning xohishiga qarshi borishdan qo'rqdim. Yopinchiqni g'ordagi odamlarga berganingni eshitganimdan keyin esa, mening uzoq yillik izlanishlarim tugaganini his qildim. Men bu sandiqning merosxo'rini topdim. Shunisi qiziqki, bu voqealar ro'y bergandan keyin, hayot kuchi asta-sekin meni tark eta boshladi. Mening umrim poyoniga yetdi, lekin men bu hayotdan xotijam ketmoqdaman. Qariyaning ovozi pasayib borardi, u oriqlab ketgan barmoqlarini musht qilib tugdi-yu Xafidga yaqinroq keldi. -Meni tingla o'glim, bu so'zlarni aytishga qurbim yetmasligi mumkin. Ko'zlaridan yosh chiqib ketgan Xafid cholga yaqinroq o'tirdi va uning qo'liga qo'lini qo'ydi. -Men senga bu bebaho sandiqni va uning ichidagi narsalarni beryapman. Lekin sen avval ba'zi bir majburiyatlarni zimmangga qabul qilishing kerak. Sandiqning ichida yuzta oltin tanga solingan hamyon bor. Bu pullar senga yoqqa turishing uchun kerak. Sen bu pullarga gilam sotib olgin va tadbirkor odamlar olamiga kir. Men senga katta meros qoldirishim mumkin. Lekin sen uchun bu zararli bo'lishi mumkin. Agar sen o'zing buyuk savdogar bo'la olsang, bu sen uchun juda foydalidir. Ko'rdingmi, men sening orzuingni unutmadi. Bu shaharni tezda tark qilgin va Damashqqa qarab ket. O'ramalardagi so'zlarni o'zingga shior qilib olsang, bu shaharda misli ko'rilmagan imkoniyatlar topasan.

Biror tinch maskanni topginda birinchi o'ramani qayt- qayta o'qiyvergin, toki bu so'zlar miyanga muhrlanib qolmaguncha. O'ramalarni birin-keyin o'qiganing sari savdodagi mahorating va omading ham oshib boraveradi. Mening birinchi shartim: sen o'ramalardagi har bir maslahatga amal qilasan, rozimisan?

-Xa, taqsir.

-Endi ikkinchi va eng muhim shartim. O'ramalarning sirini hech kimga ochmaysan. Bir kun kelib senga ham bu odam haqida belgi beriladi xuddi menga berilgan kabi. Bu belgi berilganda sen u odamni tanib olasan, lekin uning o'zi bu haqida bilmasligi ham mumkin. Yuraging kerakli kishini uchratganingni sezsa, sen unga sandiqchani va uning sirini yetkazasan. Bu odam sen va men kabi shartlarni bajarishi shart emas. Agar u xohlasa sandiqning sirini olamga yoyishi mumkin. Uchunchi shartni bajarishga ham rozimisan?

-Xa. PatRos yelkasiga og'ir yukni tashlaganday yengil tin oldi va jilmayib Xafidning yuzlarini oriq qo'llari bilan siladi.

-Sandiqni ol va ket. Men seni qaytib ko'rmayman. Men seni yaxshi ko'raman va omad tilayman. Lisha kelajakdagi baxtli hayotni sen bilan birga baham ko'rsin. Ko'z yoshlarini yashirmay Xafid Sandiqchani olib yotoqxonaga eshigiga yaqin keldi. Eshik yonida to'xtab sandiqni yerga qo'ydi va xo'jayiniga qaradi.

**-Qarorim qat'iy bo'lsa meni birorta omadsizlik sindira olmaydi!**

Qariya qo'l siltab u bilan xayrlashdi.

## YETTINCHI QISM

Xafid Damashqqa sharq darvozasidan kirib bordi. U eshagining ustida "To'g'ri" deb nomlangan ko'cha uzra borarkan, yuragi qo'rquv iskanjasida edi. Bozordagi baqir-chaqir bu qo'rquvni battar kuchaytirardi. Patrosning katta karvonlari bilan kirib kelishi boshqa-yu, yolg'iz va homiysiz kirib kelish boshqa ekan. Uning yo'lidan chiqqan hamma sotuvchilar o'z mollarini unga yalingansimon taklif qilishar edi. Xafid katta ko'chadan o'tib karvonsaroyini so'radi. "Moscha" deb nomlangan xovlidan xona topdi. Unga ajratilgan xona ozoda edi, u darhol bir oy oldindan xonaning pulini to'ladi. Va bu ishi bilan mexmonxona xo'jayini Antoniyoning e'tiborini qozondi. Eshagini uyning orqa tomoniga bog'lab, o'zi Baradaning suvlarida cho'mildi va xonasiga qaytdi. Sandiqchani to'shagining yoniga qo'ydi va tasmlarini yechdi.

Xafid sandiqning qopqog'ini ochganda uning ko'z oldida o'ramalar namoyon bo'ldi. U teriga qo'lini uzatdi va uni silab ko'rdi. Teri xuddi tirikday edi. Xafid qo'lini tezgina tortib oldi va o'rnidan turdi. Panjara o'rnatilgan derazadan bozorning shovqin suroni eshitilar edi. Bozorga ko'zi tushgan zahoti uni yanada qo'rquv va shubhalar chulg'ay boshladi, ishonchidan darak ham qolmadi. Ko'zlarini yumib devorga yuzini tiradi va qichqirdi "Bu naqadar axmoqlik, menday bir molboqar buyuk savdogar bo'lishni orzu qilgani, axir men ko'chadagi do'konchalar yonidan

o'tishgayam qo'rqaman-ku. Bugun men yuzlab sotuvchilarni ko'rdim, ular mendan ancha tajribali. Ularning hammasi qo'rqmas, matonatli, savdo changalzorida yengib chiqishni ixtiyor qilganlar. Ularday bo'lish va ulardan o'tishni xohlash bu axmoqlik va manmanlik belgisi. Patros, o mening Patrosim men yana sening orzularingni chippakka chiqardim".

Uzoq o'ylardan charchagan Xafid anchagacha noxush hayollardan qiynalib yotdi va axiyri uyquga ketdi. Xafid ertalab qushchalarni chirillashidan uyg'ondi. U to'shakda o'tirib sandiqni qopqog'iga o'rnashgan chittakka umidsiz tikildi. Keyin derazaning oldiga keldi va daraxtlarga o'tirib chug'urlayotgan minglab chittaklarga qaradi. Ba'zi bir qushlar deraza raxida o'tirishar, lekin Xafid harakat qilsa o'sha zahoti uchib ketishardi. Yigit orqasiga o'girilib, yana kichkina mehmoniga ko'z tikdi. Qushcha ham boshini ko'targancha mezbonga qarab turardi. Xafid astagina sandiqqa yaqinlashdi va qo'lini uzatdi, chittak darxol uning kaftiga qo'ndi.

- Sening hamma qo'rqqoq birodarlaring tashqarida qolishdi. Sen esa hech hayiqmay ichkariga kirding.

Chittak Xafidning qo'lini cho'qidi, yigit uni stolning ustiga qo'ydi. Xurjunda non va pishloq bor edi, u ikkalasidan ham maydalab kichkintoy do'stining oldiga qo'ydi. Qushcha tamaddi qilayotgan vaqtda Xafid yana derazaga yaqin keldi va panjarani paypaslab ko'rdi. Panjaraning teshiklari haddan tashqari kichik

edi. Qushchaning shu teshikdan o'tganiga ishonish qiyin edi. Shunda u PatRosni esladi va uning so'zlarini pichirlab aytdi.

**"Qaroring qat'iy bo'lsa omadsizlik seni sindira olmaydi."**

Yigit sandiqqa yaqinlashdi va uning ichiga ko'z tashladi. Bitta o'rama anchagina eskirgandi. U o'sha o'ramani oldi-da, avaylab ochdi. Qo'rquv uni tark etgan edi. U orqasiga qaradi. Qushcha ham uchib ketgan ekan. Faqat non va pishloqning ushoqlari kichkina botir qushcha haqida eslatib turardi. Xafid o'ramalarning oldiga qaytib keldi va o'qishni boshladi. So'zboshida "Birinchi o'rama" deb yozilgan edi....

## **SAKKIZINCHI QISM**

### **Birinchi o'rama**

#### **Bugundan e'tiboran men yangi hayot boshlayapman.**

Bugun men g'amlarim, uquvsizligim va taqdir zarbalari tamg'alangan eski terimni yechib tashlayman. Bugun men hammaga mevasi yetadigan uzumzorda qaytadan dunyoga kelaman. Bugun men eng baland toklarda joylashgan, mendan ilgari yashab o'tgan donishmandlar mevalarini terib olaman. Bugun men anashu mevalarning ta'mini bilaman va ularning ichida yashiringan muvaffaqiyat urug'ini o'z qalbinga yangi hayotga erishish uchun ekaman. Men tanlagan ishda, meni juda ko'p imkoniyatlar kutayabdi, lekin shuncha ko'p ko'ngilsizliklar ham. Agar bu hayotda omadsizlikka uchragan barcha odamlardan piramida yasaganlarida edi, u dunyodagi eng baland piramida bo'lur edi. Lekin men boshqalar kabi yutqazmayman. chunki mening qo'limda menga yo'l ko'rsatuvchi xarita bor. Unga tayangan xolda men shiddatli dengizlardan oshib o'z orzuyim qirg'og'iga yetaman. Bu kurashlarda men mag'lubiyatga uchramayman. Mening tanam og'riqni sezishni xohlamaydi, mening hayotim esa omadsizlikni tan olmaydi. Og'riq va omadsizlik mening tabiatimga zid tushunchalar. Endi men Omadsizlikdan yuz o'giraman va donolikka, meni omadga eltuvchi qoidalarga qarab yo'l boshlayman. Boqiy umr ko'ruvchiga vaqt hamma narsani o'rgatadi, lekin mening buncha vaqtim yo'q. Men uchun berilgan vaqt davomida men sabr san'atini o'rganmog'im lozim, chunki tabiatning o'zi hech qachon shoshma-shosharlik qilmaydi. Chunki daraxtlar malikasi bo'lmish zaytun daraxtini yaratish uchun 1000 yillar kerak,

piyoz esa atiga 9 haftalarda chiriydi. Men piyozday yashadim va baxtsiz edim. Endi esa qudratli zaytun daraxtiga aylanaman va buyuk savdogar bo'laman. Lekin bunga qanday erishish mumkin? Mening bilimim ham, saviyam ham yo'q, men ko'p martalab yiqilganman va o'z-o'zini ayash o'rasiga tushganman, bu yo'l har xil befoyda bilimlardan, ko'nikmalardan holidir. Tabiat meni hayvonlardan ustun qilgan holda, juda ajoyib sezgirlik va ziyraklik bilan taqdirlagan. Hamma ishda odamlarning o'zida donolik va to'g'ri fikrlash qobiliyati yetmaydi. Saviyali bo'lish uchun ko'p yillarni sarf qilish kerak, bu narsa esa ba'zida o'rganilayotgan darsni befoyda qilib qo'yishi mumkin. Zamonaning zayli tez o'zgaradi, siz esa zamonadan orqada qolib ketishingiz mumkin. Bugun sizga omad keltirgan harakat ertaga hech kimga kerak bo'lmasligi mumkin. Mening qo'limdagi o'ramalardan buyuklikka va muvaffaqiyatga olib boradigan qoidalarni o'rganish mumkin. Ular meni nafaqat omadsizlikdan asraydi va buyuk ishlarga yetaklaydi. Shu bilan birgalikda qoidalar menga muvaffaqiyat nima ekanligini ko'rsatadi. Muvaffaqiyat- bu aqlingizning ko'rsatgichidir. Mingtadan ikkita donishmand ham "Omada nima? degan savolga bir xil javob bera olmaydi, lekin omadsizlik haqida hammaning fikri bir xil.

**Omadsizlik - bu maqsadlar qanday bo'lishidan qat'iy nazar, oldiga qo'yilgan maqsadga erisha olmaslik. Omadli va omadsiz odamlarning orasida faqat bitta farq bor - bu ularning odatlari.**

Yaxshi odatlar bu muvaffaqiyat eshigining kalitidir, Yomon odatlar- bu mag'lubiyatga eltadigan ochiq eshikdir. Shuning uchun men quyidagi qonunga bo'ysunaman. Men yaxshi odatlarni o'rganaman va ularning

quli bo'laman. Bola bo'lganimda men hissiyotlarim hukmi ostida bo'lganman hozir esa hamma bo'ygga yetgan insonlardek odatlarim quliman. Men ko'p yillar davomida qancha odatlarga ega bo'ldim va bu harakatlarim meni daxshatli kelajak sari yetaklay boshladi. Mening harakatlarimni quyidagi zolimlar boshqara boshladi: bo'yin egish, ochko'zlik, noto'g'ri baho berish, qo'rquv, shaxvatparastlik atrofdagi muhit va odatlar. Bular ichidagi eng daxshatlisi bu odatlar. Demak agar men odatlarimning quli bo'lsam - yaxshi odatlarning quli bo'lay. Shuning uchun yomon odatlarimni ildizi bilan sug'urib tashlab, yaxshi odatlar uchun joy tozalashim kerak. Men yaxshi odatlarni o'rganaman va ularning quli bo'laman. Bu ishni qanday amalga oshirish kerak? Qo'limdagi o'ramalar menga bu ishda yordam beradi. Bu o'ramalarning har birida shunday ajoyib qoida bor-ki ular menga yomon odatlardan qutulib, yaxshi odatlar va g'alaba tomon yetaklaydi. Niyatlarimga yetish uchun qo'llaydigan eng birinchi yaxshi odatlim quyidagicha:

**Men har bir o'ramani 30 kun davomida o'qiyman va shundan keyingina ikkinchisiga o'taman. Birinchi marta men ertalab o'qiyman, so'ngra tushdan keyin(bu paytda ichimda) va uxlashdan oldin o'qiyman (ovoz chiqarib). 30 kun davomida bu ishni takrorlayman va bu narsa mening odatimga aylanadi.**

Men bu ish bilan nimaga erishaman? Odamzodga omad keltiruvchi sir xuddi shu ishning zamirida yashiringan. Men bu matnni o'qiyvergan sayin misralar mening ongimga singib ketaveradi va men o'zim sezmaganda omad sari yetaklovchi harakatlar qilishni boshlayman. Mening ongim bu dono so'zlarni singdirib olgandan keyin, har ertalab



men shunday shijoat va kuch bilan uyg'onamanki, bu hislatlar avval menda yo'q edi. Men kundan kunga g'ayratli va shijoatli bo'laveraman. Avvallari mening irodamni bukadigan qo'rquvlardan halos bo'laman. Men bu yovuz va g'amxona dunyoda baxtli bo'lishni o'rganaman. Men har bir sharoitda, o'ramalarda ko'rsatilgandek o'zimni tutaman va bu ish menga endi mashaqqatli tuyulmaydi, chunki bu odatlar mening qonimga singib ketgan bo'ladi. Shu harakatlarim natijasida yangi va ijobiy odatlarim dunyoga kela boshlaydi. Har bir harakat qayta-qayta takrorlansa, oson va yoqimli ishga aylanadi. Har qanday yoqimli ishni esa odam yana- yana takrorlagisi keladi. Oqibatda bu harakatlar men uchun yaxshi odatga aylanadi, men esa odatlarim quliga aylanaman. Bu mening istagim. Bugun men yangi hayot boshlayman. Men o'z oldimda qasamyod qilaman: Mening yangi hayotimning oqimiga hech narsa halal bera olmaydi!". Men biror kunimni o'qimasdan o'tkazmayman, chunki bu kun qaytib kelmaydi. Men har kuni o'ramalarni o'qish odatimni tark etmayman. Chunki bu bir necha daqiqalik mehnatim menga omad va baxt keltiradi. Men o'ramalarni o'qiyotgan paytimda satrlarni tashlab o'qimayman, bu oddiy so'zlarga yengiltaklik bilan qaramayman. Bir ko'za sharbat tayyorlash uchun necha ming dona uzumni siqadilar, po'sti va qoldiqlarini esa qushlarga tashlaydilar. Xuddi shu ish donishmandlik bog'ida ham amalga oshiriladi. Keraksiz so'zlar shamolda uchurilib, har biri oltinga teng dono hikmatlar qolgan. Men bu ilm sharbatining bir tomchisini ham yerga to'kmasdan, simiraman va omad urug'lari mening yuragimga qadaladi. Bugun mening eski terim kulga aylanadi. Men yangi hayot sari qadam bosayotgan yangi odamman.

## **TO'QQIZINCHI QISM**

### **Ikkinchi o'rama**

**Men bugungi kunni hammaga nisbatan muhabbat bilan boshlayman.**

Chunki bu omadning eng asosiy siri. Mushaklar kuchi bilan to'siqlarni sindirish mumkin. Faqat muhabbatning ko'zga ko'rinmas kuchlari bilan yuraklarga yo'l topish mumkin. Toki men mana shu san'atni o'rganmasam, bozordagi yuk tashuvchilik mening qismatim. Muhabbat mening qurolim bo'ladi va men kimga murojat qilmasam, hech kim mening muhabbatim kuchini yenga olmaydi. Mening so'zlarimga ishonmaslik mumkin, ishlarimni inkor qilish mumkin, yuzimga qaramaslik mumkin ammo mening muhabbatim quyoshga o'xshab yuraklarning muzini eritadi.

**Men bugungi kunni yuragimda hammaga nisbatan muhabbat bilan boshlayman.**

Buni qanday bajarish mumkin? Endi men hamma narsaga muhabbat bilan qarayman va bu mening yangi tug'ilishim bo'ladi. Men quyoshni sevaman, u mening tanamni qizdiradi; men yomg'irni ham sevaman. U mening ruhimni tozalaydi. Men yorug'likni sevaman, u menga yo'l ko'rsatadi; Men tunni ham sevaman, chunki u menga yulduzlarni taqdim etadi; quvonch bilan baxtni qarshi olaman, u meni sahiy qiladi. G'amni ham

chidam bilan qabul qilaman, chunki u qalbimni ochiq qiladi. Men mukofotlarni oddiy hol deb qabul qilaman, to'siqlarni rivojlanishning yana bir sababi deb xisoblayman.

**Men bugungi kunni yuragimda hammaga nisbatan muhabbat bilan boshlayman.**

Men o'zгалar bilan qanday gaplashaman? Men dushmanlarimni maqtayman va ular mening do'stinga aylanadilar. Men do'stlarimni qo'llab quvvatlayman va ular mening qarindoshlarimga aylanadilar. Men hammani maqtash uchun sabab topaman, lekin g'iybatga mening hayotimda o'rin yo'q. Birovni ayblamoqchi bo'lsam, tilimni tishlayman. Maqtamoqchi bo'lsam, tomga chiqib jar solishga ham roziman. Qushlar, shamol, dengiz va butun dunyo yaratganga hamdu sano aytmaydimi? Men esa yaratganning bandalariga shu qo'shiq bilan murojat qila olmaymanmi? Bundan buyon men bu sirni unutmayman va bu mening hayotimni o'zgartiradi.

**Men bugungi kunni yuragimda hammaga nisbatan muhabbat bilan boshlayman.**

Men o'zimni qanday tutishim zarur? Men hammaga faqat muhabbat bilan murojat qilaman. Hamma odamlarda ham maqtovga arzigulik xususiyat bor, lekin bu xususiyat yuzada yotmasligi mumkin. Muhabbat bilan shubha va nafrat devorlarini sindiraman. Bunday devorlar bilan bu odamlar o'z yuraklarini o'rab olganlar. Men esa bu devorlar o'rniga odamning qalbiga muhabbat olib kiruvchi ko'prik quraman. Men shuxratparastlarni

sevaman, chunki ular meni ilhomlantiradilar. Men omadsizlarni sevaman, chunki ularning xatolari men uchun dars bo'ladi. Men podsholarni sevaman, chunki ular bor-yo'g'i odam bolasi, va men oddiy xalqni sevaman chunki ular Xudoning bandalari. Men badavlatlarni sevaman, chunki ular ozchilik. Men kambag'allarni sevaman, chunki ular ko'pchilik. Men yoshlarni sevaman, chunki ular umid bilan yashaydilar. Men qarilarni sevaman, chunki ular bizga donolikni o'rgatadilar. Men chiroylilarni sevaman, chunki ularning ko'zlari g'amgin, men xunuklarni sevaman, chunki ularning ko'ngillarida orom mujassamlashgan.

**Men bugungi kunni yuragimda hammaga nisbatan muhabbat bilan boshlayman.**

Men boshqalarning harakatiga qanday javob berishim kerak? Faqatgina muhabbat bilan. Muhabbat bu odamlarni yuragini zabt etadigan qurolimga emas balki muhabbat bu meni odamlarga nafrat o'qidan va g'azab nayzasidan himoya qiluvchi qalqondir. Baxtsizlik va omadsizliklar mening bu qalqonimga urilib bor yo'g'i iliq bahor yomg'iriga aylanadilar. Muhabbat meni ko'pchilik orasida ham , yolg'izlikda ham asraydi. Muhabbat meni nochorlikda ruhlantiradi. Manmanlikka berilganimda xushyor qiladi. Qalqonim kundan kunga mustahkamlanadi, va bir kun men uni chetga olib qo'yaman, chunki endi meni yo'limda to'siqlar uchramaydi. Shunda men hayot zinasidan balandga ko'tarila boshlayman.

**Men bugungi kunni yuragimda hammaga nisbatan muhabbat bilan boshlayman.**

Meni odamlar qanday nazar bilan ko'radilar? Hamma menga uchragan insonlarga men seni sevaman deb ichimda aytaman. Bu aytilmagan so'zlarim mening ko'zimda charaqlaydi. Yuzimda tabassumga aylanadi.

Ovozimda aks sado beradi va o'sha odamlarning yuragida olov yoqadi. Bu olov yonganda u mening muhabbatimni sezadi va men taklif qilgan narsadan voz kechmaydi.

**Men bugungi kunni yuragimda hammaga nisbatan muhabbat bilan boshlayman.**

Lekin hammadan ko'p men o'zimni sevishim kerak. Chunki men ishim davomida yuragimga, ruhimga aqlimga va jismimga kirayotgan barcha narsani sinchiklab tekshiraman. Men aqlimni nazorat ostiga olaman va uni zulmga yoki bafarqlikka yuz tutishga qo'ymayman, aksincha uni bilim bilan va donolik bilan boyitaman.

Ruximni beparvo va tarallabedod bo'lishiga yo'l qo'ymayman, aksincha uni fikrlash qobiliyatim va e'tiqodim bilan o'stiraman. Yuragim esa g'am g'ussadan zaharlangan bo'lmaydi. Aksincha odamlarga mehr berish uchun u doimo ochiq bo'ladi.

**Men bugungi kunni yuragimda hammaga nisbatan muhabbat bilan boshlayman.**

Men butun insoniyatni sevaman. Bugundan e'tiboran nafrat mening yuragimdan joy topa olmaydi. Chunki mening nafratlanishga vaqtim yo'q. Faqat sevishga vaqtim bor. Hozir men odam bo'lish uchun va odamlarning orasida yashash uchun kerakli qadamlarni tashlayapman. Men muhabbatim yordamida o'z daromadlarimni yuz barobar o'stiraman va buyuk savdogar bo'laman. Balkiy men qobiliyatli emasdurman, lekin muhabbatimning o'zi bilanoq omadga erishaman. Muhabbatsiz men baribir yutuqqa erisha olmas edim. Garchi o'ta bilimdon bo'lsam ham.

## **O'NINCHI QISM**

### **Uchinchi o'rama**

**Muvaffaqiyatga erishmagunimcha men orqaga qaytmayman.**

Agar men tirishqoq bo'lsam, agar men urinishdan charchamasam, oldinga qarab harakat qilaversam, men albatta g'alabaga erishaman. Men omadsiz bo'lib tug'ilmaganman. Mening qonim mag'lubiyatlardan buzilmagan. Men cho'ponning tayog'iga muhtoj qo'y emasman. Men arslonman va qo'ylar bilan yashab, ularning taqdiriga sherik bo'lishni istamayman. Men doimo nolib yuradiganlarning gapiga quloq solmayman, chunki ularning kasali yuqumli. Ularning joyi qo'ylarning orasida.

## **Muvaffaqiyatga erishmagunimcha men orqaga qaytmayman.**

Xayot o'z sovrinlarini yo'lning ohirida beradi, boshida emas. Manzilimga yetguncha men hali qancha yurishimni bilmayman. Minginchi qadamimda meni balki omadsizlik kutayotgandir, lekin muyulishdan o'tgan zahotiyiq meni omad kutayotgandir. Agar men muyulishga yetmasam, men buni bila olmayman. Nima bo'lgan taqdirda ham, men albatta keyingi qadamimni qo'yaman. Agar bu qadamim befoyda bo'lsa, men ikkinchi uchinchi qadamimni qo'yaman. Har qanday vaqtda ham yana bitta qadam qo'yish qiyin ish emas. Muvaffaqiyatga erishmagunimcha men orqaga qaytmayman. Bundan keyin men har kungi harakatlarimni eman daraxtini qulatish uchun qilinayotgan urinish deb hisoblayman. Daraxt birinchi ikkinchi uchinchi bolta urishda ham qulamaydi. Har bir urinish o'z-o'zidan katta ahamiyatga ega emas va natijasiz bo'lishi mumkin. Ammo borib borib hatto bolaning bolta urishdan ham eman qimirlay boshlaydi. Mening har kungi harakatlarim ham shunday natija beradi. Men o'zimni tog'ni kemiradigan tomchiga, yo'lbarsni yeb tugatadigan chumoliga, zaminni yoritayotgan yulduzga, piramida qurayotgan qulga o'xshataman. Men bitta-bitta g'isht qo'yib saroy quraman, chunki har kungi kichik urinishlar juda katta natijalar keltiradi.

## **Muvaffaqiyatga erishmagunimcha men orqaga qaytmayman.**

Men mag'lubiyatga bo'yn egmayman, "omadsizlik, befoyda umidsizlik, bo'lishi mumkin emas, qila olmayman, chekinaman" degan so'zlar mening og'zimdan chiqmaydi, chunki bu so'zlarni faqat nodonlar ishlatadi. Men tushkunlikka tushmayman, lekin shu axvolga tushgan taqdirimda ham, men baribir ishlayveraman. Men mehnat qilaman va g'alabaga erishaman. Men to'siqlarning ustidan o'tayotgan vaqtimda ularga qaramayman, chunki mening ko'zlarim cho'qqilarda bo'ladi. Men bilaman cho'qqilardan o'tsam bog'larga yetib kelaman.

**Muvaffaqiyatga erishmagunimcha men orqaga qaytmayman.**

Savdo-sotiqdagi har bir mag'lubiyatim meni muvaffaqiyatga yaqinlashtiraveradi. Har bir ho'mraygan nazar meni tabassum balqib turgan chehraga yaqinlashtiradi. Har bir omadsizlik kelajakdagi omad urug'ini o'zida saqlaydi. Men kunduzni qadriga yetish uchun avvalo tunni ko'rishim kerak. Men muvaffaqiyatning mazasini tuyish uchun avvalo mag'lubiyatga uchrashim kerak. Muvaffaqiyatga erishmagunimcha men orqaga qaytmayman. Men yana va yana urinaveraman. Har bir to'siqni men o'zim uchun, omadga eltuvchi yo'lning debochasi deb bilaman. Men tirishqoq va o'z ishimning ustasi bo'laman. Men savdogarlarning har bir sirini esimdan chiqarmayman va o'zimga qurol qilib olaman. Har kun quyosh botguncha savdom unumli yoki unumsiz bo'lganidan qat'iy nazar, men yana biror narsa sotishga urinib ko'raman. Aqlim charchagan tanamni uyga qaytishga undasa ham, men yana bir karra harakat qilaman, bu



harakatim befoyda bo'lsa ham yana bitta harakat qilaman. Kunim omadsiz tugashiga hech qachon yo'l qo'ymayman. Men bu ishlarim bilan bo'lajak g'alaba urug'larini ekaman va ishini o'z vaqtida tugatadiganlar oldida katta imkoniyatga ega bo'laman. Boshqalar ishini tugatganda, men o'z ishimni boshlayman va mening hosilim mo'l bo'ladi. **Muvaffaqiyatga erishmagunimcha men orqaga qaytmayman.**

Kechagi yutuqlarim meni bugun yalqov qilib qo'yishiga yo'l qo'ymayman. Aks holda omadsizlikka eshik ochgan bo'laman. O'tayotgan kunni unutamam, xoh u menga yaxshilik keltirgan bo'lsin xoh yomonlik. men yangi kunni hayotimning eng yaxshi kunidek kutib olaman. Nafas olayotgan ekanman men tirishqoq g'alabaga olib keladi.

**Men orqaga qaytmayman.**

**Men g'alabaga erishaman.**

## O'N BIRINCHI QISM

### To'rtinchi o'rama

**Men tabiatning buyuk mo'jizasiman.**

Chunki yer yuzida mening aqlimga, yuragimga, ko'zimga, qo'limga, labimga ega bo'lgan odam boshqa yo'q. Avval yashab o'tganlar ham, hozir yashayotganlar ham, kelgusida yashaydiganlar ham menday yura olmaydi, gapira olmaydi va

harakat qila olmaydi. Hamma odamlar mening birodarlarim, lekin men baribir ularning birontasiga ham o'xshamayman.

Men - Yaratganning nodir bandasiman.

### **Men tabiatning buyuk mo'jizasiman.**

Men qaysidir ma'noda hayvonot dunyosiga tegishli bo'lsam ham, hayvonot olamiga xos his-tuyg'uning o'zigina menga yetmasligini men bilaman. Avloddan avlodga o'tib kelayotgan olov mening qalbimda joylashgan va olovning tafti meni buyuk ishlarga undaydi. Men doimo o'z ustimda ishlayman va bu olamga o'z nodirligimni namoyon qilaman. Hech kim mening husnixatimda yoza olmaydi. Mening ishimni bajara olmaydi. Mening mo'yqalamim harakatini qaytara olmaydi. Va mening bolamni yarata olmaydi. Hech kim savdoda menchalik uddaburon bo'la olmaydi. Men mana shu xususiyatlarimdan unumli foydalanaman. Chunki bu to'raligicha ishlatilishi kerak bo'lgan boyligim.

### **Men tabiatning buyuk mo'jizasiman.**

Men endi hech kimga taqlid qilmayman. Buning o'rniga men bozorga o'zimni nodirligimni taklif qilaman, uni odamlarga taklif qilaman va sotaman. Bundan keyin men o'zimni hech kimga o'xshamasligimni bo'rttiraman. O'xshashliklarimni esa yashiraman. Mana shu qonunni men sotilishi kerak bo'lgan mollarimga nisbatan ham qo'llayman. Hech kimga

o'xshamaydigan savdogar va uning mollari bilan faxrlansa arziydi.

### **Men tabiatning buyuk mo'jizasiman.**

Men - kamyobman, kamyob narsalar esa qimmat turadi. Men dunyo taraqqiyotining ming yillik mevasiman, shuning uchun mendan oldin o'tgan podsholar va donishmandlardan aqlan ham jismonan ham o'zib ketganman. Mening bilimim ham aqlim ham, yuragim ham, jismim ham o'zlariga munosib ish topmasalar qarib chirib o'lib ketadilar. Mening imkoniyatlarimning chegarasi yo'q. Men aqlimning va mushaklarimning atigi bir necha foizini ishga solaman. Bundan keyin bu ko'rsatgichni kundan kunga oshiraveraman. Men endi avvalgi ko'rsatgichlarimdan faxrlanmayman, ular unchalik e'tiborga loyiq emas ekan. Men bundan buyon katta katta muvaffaqiyatlar sari ildam yurib boraveraman. Mening hayotimdagi eng ajoyib hodisa- mening dunyoga kelishim bilan kifoyalanib qolmasligi kerak. Mana shu ajoyibotlarni hozirgi kunda bajarayotgan ishimda namoyon qilsam bo'ladiku.

### **Men tabiatning buyuk mo'jizasiman.**

Parvardigor meni bu dunyoga bekorga yubormagan. Men bu dunyoga tuproq bo'lib emas, tog' bo'lib kelganman. Men endi eng baland tog' bo'lish uchun imkoniyatlarimdan so'nggi tomchisigacha foydalanaman. Men o'zim haqidagi, odamlar haqidagi, sotiladigan mollarim haqidagi bilimlarimni oshiraman. Va mening daromadlarim shu sababli kundan kunga oshaveradi.

Men haridorimga aytadigan har bir so'zimni saralab tanlayman va sayqal beraman. Chunki bu meni omadga eltuvchi asosdir. Ko'pgina odamlarga davlat va obro' bor-yo'g'i bittagina a'lo darajadagi suxbatdan keyin kelganligining guvohi bo'lganman. Shu bilan birgalikda men o'z hatti harakatlarim ustida tinimsiz ish olib boraman. Men juda extiromli bo'laman. Chunki bu narsa odamlarning mehrini uyg'otadigan asaldir.

### **Men tabiatning buyuk mo'jizasiman.**

Men fikrlarimni aynan shu sharoitga moslab jamlashni o'rganaman. Boshqa fikrlar meni bu paytda chalg'itmaydi. Uyimning tashvishlari uuda qoladi. Bozorda bo'lganimda men oilamni eslamayman. Aks xolda mening hayolim buziladi. Shu bilan birga bozorning tashvishlarini ham uyga keltirmayman. Bo'lmasa oilam mening muhabbatimdan bebahra qoladi. Bozorda mening oilamga joy yo'q, oilamda esa bozorga joy yo'q. Shu asnoda men birinchisini ikkinchisidan ajrataman. Lekin ikkalasi bilan ham chambarchas bog'lanaman. Men uchun muqaddas sanalgan bu dargohlarning ikkalasi ham o'z chegarasida qolishi kerak. Aks xolda mening muvaffaqiyatimga putur yetadi. Bu hayotning qonuni.

Ko'zlar menga ko'rish uchun berilgan, aql- o'ylash uchun. Men o'zim uchun kashfiyot yaratdim. Mening hamma omadsizligim, baxtsizligim tushkunlikka tushganlarim- bular mening buyuk IMKONIYATLARIM ekan.

### **Men tabiatning buyuk mo'jizasiman.**

Hayvon ham, daraxt ham, shamol ham, yomg'ir ham, tog' ham, ko'l ham menga qondosh emas, chunki men sevgining mevasiman va bu dunyoga qaysidir maqsad uchun tug'ilganman. Men avvallari buni bilmas edim, endi esa bu hayotim negiziga aylandi.

**Men tabiatning buyuk mo'jizasiman.**

Tabiat mag'lubiyat nima ekanini bilmaydi. Oxir oqibat u g'alabaga erishadi. Menga ham har bir muvaffaqiyatdan keyin kurash tobira yengillashib boradi. Men g'alabaga erishaman va buyuk savdogar bo'laman. Chunki men yagonaman.

**Men tabiatning buyuk mo'jizasiman.**

**O'N IKKINCHI QISM**

**Beshinchi o'rama**

**Men bugungi kunimni xuddi hayotimning so'nggi kunidek yashab o'taman.**

Men hayotimning eng qimmatli ohirgi kunini qanday o'tkazaman.? Avvalambor, umrim solingan idishni yaxshilab berkitaman, bir tomchi umrim ham bekorga tuproqqa singib ketmasin. Men hayotimning bir daqiqasini ham kechagi omadsizliklar va hafagarchiliklarni eslashga sarflamayman. Qimmatbaho buyumni behuda narsaga sarflashni nima keragi bor? Soatdagi qum yuqoriga oqadimi? Quyosh teskari chiqib yoki bota oladimi? Men kechagi kunga qaytib, qilgan xatolarimni tuzata olamanmi? Men kechagidan ko'ra, bugun yoshroq bo'la olamanmi? Men birovga bergan zarbamni, aytgan achchiq so'zimni, yetkazgan ozorimni qaytarib ola olamanmi? Yo'q, kechagi kunning voqealari kecha ko'mildi va men bu haqida boshqa hech qachon o'ylamayman.

**Men bugungi kunimni xuddi hayotimning so'nggi kunidek yashab o'taman.**

Men endi nima qilaman? Kechagi voqealarni eslamayman, lekin shu bilan birgalikda ertangi kunni ham o'ylamayman. Men "**hozir**" degan so'zni "**bo'lishi mumkin**" degan so'zlar bilan almashtirmayman. Soatlardagi ertangi qum bugun to'kiladimi? Bugun ikki marta quyosh chiqadimi? Ertangi ishni bugun bajara olamanmi? Ertangi oltinni men bugun hamyonimga sola olamanmi? Erta tug'ilishi mumkin bo'lgan bola bugun tug'ila oladimi? Ertangi o'lim bugungi xursandchilikka soya sola oladimi? Men o'zim ko'rmasligim mumkin bo'lgan voqealar uchun qayg'urishim kerakmi? Men hali bo'lmagan muammolarni

o'ylashim kerakmi? Yo'q, erta ham kecha bilan birga ko'milgan va men bu haqida boshqa o'ylamayman.

**Men bugungi kunimni xuddi hayotimning so'nggi kunidek yashab o'taman.**

Bugungi kun bu menda bo'lgan hamma narsa, bu soatlar esa men uchun mangulikdir. Men tongni katta quvonch bilan kutib olaman, xuddi o'limi kechiktirilgan maxbusga o'xshab. Men bugungi kunni xuddi hayotimdagi eng qimmatbaho sovg'a deb qabul qilaman.

Kechagi tongni kutib olgan ammo, bugun oramizda yo'q insonlarni men yuragimda iliqlik bilan eslayman. Men - omadliman va bugungi kunning soatlari men uchun taqdirning bebaho marhamati. Nima uchun menga yana bir kun yashashga ruxsat berildi, axir mendan o'n chandon yaxshi odamlar bugun yo'q-ku! Balki ular kerakli maqsadlarga erishdilar, men esa hali bu ishni qilishga ulguranim yo'q! Aynan bugungi kun shu maqsadlarimga erishish uchun menga berilgan imkoiyatdir balki?

**Men bugungi kunimni xuddi hayotimning so'nggi kunidek yashab o'taman.**

Menga hayot faqat bir marta berilgan va bu hayot vaqtning kichkina bir qismidir. Vaqtni behuda sarf qilib men juda ko'p narsalarni yo'qotayapman. Bugungi kunni behuda sarf qilib men balki hayotimning so'nggi kunini yo'qotayotgandirman. Shuning

uchun men bugungi kunning har bir soatini avaylashim kerak. Chunki bu soat hech qachon qaytib kelmaydi. Uni erta uchun asrab bo'lmaydi. Huddi shamolni egarlab bo'lmagani kabi. Bugungi kunning har birdaqqasini men kaftlarim orasiga olib erkalayman, chunki u bebaho. Hayot bilan vidolashayotgan odam, yana bir nafasni sotib ola oladimi? Bu nafas uchun dunyodagi barcha oltinlarni bergan taqdirda ham. Men har bir daqqani qanchaga baholayman? Men ularni bebaho qilaman.

**Men bugungi kunimni xuddi hayotimning so'nggi kunidek yashab o'taman.**

Vaqtini behudaga o'ldiruvchi odamlardan men qochib yuraman. Bamaylihotirlikni men harakat bilan yo'q qilaman. ishonchsizlikni men ishonch bilan yengaman. Qo'rquvni men aniqlik bilan daf qilaman. Safsatabozlarga men quloq solmayman. Dangasalar bo'lgan joyda men ushlanib qolmayman. Yallo qilib yashayotganlar oldiga men yaqin ham kelmayman. Yallo qilib yashash bu- yaxshi ko'rgan odamlaringdan mehringni, ovqatni, kiyimni o'g'irlashdir.

**Men bugungi kunimni xuddi hayotimning so'nggi kunidek yashab o'taman.**

Men bugungi burchlarimni bajaraman. Men bugun bolalarimga mehr ko'rsataman, chunki ular hali yosh, ertaga esa ular ketib qoladilar va men ham ketaman. Bugun men yordamga muhtoj do'stimni qo'llayman, chunki ertaga u meni chaqira olmasligi mumkin. Balki u chaqirganda men eshita olmasligim mumkin.



Men bugun o'zimni qurbon qilaman. Ertaga balki men hech narsa taklif qila olmayman, yoki bu taklifimni qabul qiluvchi odamning o'zi bo'lmas.

**Men bugungi kunimni xuddi hayotimning so'nggi kunidek yashab o'taman.**

Agar bugungi kunim haqiqatdan ham men uchun hayotimning ohirgi kuni bo'lsa, bu menga qo'yilgan buyuk haykal bo'ladi. Men bugungi kunni hayotimdagi eng ajoyib kunga aylantiraman. Bugungi kunning har bir daqiqasini men ohirigacha simiraman, uning ta'mini sezaman va undan minnatdor bo'laman. har bir soatni snanayman va har bir soniyasini buyuk ishlarga sarflayman. men odamlar bilan har kungidan ko'proq muloqotda bo'laman. Men har kungidan ko'proq mol sotaman va har kungidan ko'proq oltin ishlab topaman. Har bir daqiqam kechagidan unumliroq bo'ladi va bugun ohirgi kun hayotimdagi eng yaxshi kun bo'ladi.

**Men bugungi kunimni xuddi hayotimning so'nggi kunidek yashab o'taman.**

**Agar bu kun hayotimning eng ohirgi kuni bo'lmasa men bu kun oldida minnatdorlik bilan tiz cho'kaman.**

## O'N UCHINCHI QISM

### Oltinchi o'rama

**Bugun men o'z hissiyotlarimning qiroli bo'laman.**

Suvlar oqib keladi-suvlar oqib ketadi. Qish tugaydi va yoz keladi. Yoz chekina boshlasa yana qish xukmronlik qila boshlaydi. Quyosh chiqadi

va quyosh botadi. Qushlar uchib keladi va uchib ketadi. Gullar ochiladi va gullar so'ladi. Urug'larni ekadilar va hosilni yig'ishtirib oladilar. Tabiat bu hodisalarning aylanib turishidir. Men ham tabiatning bir qismiman. Shuning uchun mening kayfiyatim ham goh ko'tariladi- goh tushadi.

### **Bugun men o'z hissiyotlarimning qiroli bo'laman.**

Quyidagi holat tabiatning sirlaridan biridir: men har kuni kechagidan ko'ra boshqacha kayfiyatda uyg'onaman. Kechagi xushchaqchqlik bugungi g'amga aylanadi, bugungi g'am esa ertangi xursandchilikka aylanadi. Mening ichimda allaqanday g'aroyib aylana bordek. U doimo g'amdan-xursandchlikka, tushkunlikdan -taajjubga baxtsizlikdan- baxtga qarab aylanaveradi. Bugungi xushvaqtlikning g'unchalari ertaga so'ladi. Lekin men bir narsani esimdan chiqarmayman. So'lgan g'unchalar o'z ichiga kelajakda unishi mumkin bo'lgan gulning urug'ini saqlaydigandek, mening ham bugungi g'amim ertangi kun xursandchiligini saqlaydi.

### **Bugun men o'z hissiyotlarimning qiroli bo'laman.**

Har kunim serhosil bo'lishi uchun men nima qilishim kerak?

Agar mening kayfiyatim yomon bo'lsa, kunim ham unumsiz bo'ladi. Gullar va daraxtlarning o'sib unishi tabiatga bog'liq. Men esa ob -havoni o'zim yarataman, chunki u mening ichimda. Agar men xaridorlarimga yomg'ir, zulmat va tushkunlik keltirsam, ular ham menga shu bilan javob beradilar va mendan hech narsa sotib olmaydilar. Ammo men

xaridorlarga xursandchilik, xushvaqtlik keltirsam, ular ham ilhomlanib ketadilar va mening savdoyim juda omadli bo'ladi.

**Bugun men o'z hissiyotlarimning qiroli bo'laman.**

Men o'z his tuyg'ularimni qanday jilovlashim kerak?

Men qadimdan qolgan bir sirni bilib oldim: qatiyatsiz odamning fikrlari, uning harakatlari ustidan hukmronlik qiladi, dovyurak odam esa fikrini harakatiga bo'ysundiradi.

Har ertalab uyqudan uyg'ongach, men mana shu qoidaga bo'ysunaman. Aks holda g'am va omadsizlik meni o'z iskanjasiga oladi.

Agar men o'zimni g'amgin sezsam, men qo'shiq aytaman. Agar men hafa bo'lsam, men kula boshlayman.

Agar men o'zimni yomon his qilsam. Men ikki baravar ko'p harakat qilaman.

Agar men qo'rquv sezsam, o'zimni oldinga tashlanishga majbur qilaman. Agar men tushkunlikka tushsam, mening ovozim balandroq chiqadi. Kambag'allikni seza boshlasam, kelajakdagi boyligim haqida o'ylayman. Agar men o'zimni nodon sezsam, oldingi yutuqlarimni eslayman.

Agar men o'zimni keraksiz dek his qilsam, o'zimni maqsadlarimni eslayman.

**Bugun men o'z hissiyotlarimning qiroli bo'laman.**

Men doimo bir fikrni yodda saqlayman. Faqat bo'ysunishni biladiganlar muvaffaqiyat cho'qqisida turib qolishlari mumkin. Lekin men bo'ysunuvchi emasman. Meni yo'q qilmoqchi bo'lgan kuchlar bilan kurashishim kerak bo'ladigan kunlar keladi. G'am va ishonchsizlik kabi dushmanlarimni tez tanib olaman. Lekin shunaqa yovuz kuchlar ham borki, ular menga jilmayib qo'l uzatib yaqinlashadi. Lekin men doimo sergak turishim kerak va ularni nazorat ostida ushlashim kerak.

**Mag'rurlikni** his qilsam - omadsizlikni eslayman.

**To'qlikni** his qilsam och yurgan kunlarimni eslayman. Rohatlanish sezsam- kurashgan davrim ko'z oldimga keladi.

**Kuch-qudratni** his qilsam- xo'rliklar esimga tushadi.

**Manmanlikni** his qilsam- shamolni jilovlashga harakat qilaman. Badavlat bo'lganimda - men qashshoqligimni eslayman.

**Mansabimga** aqida qilsam- men nochorligimni eslayman.

**Men o'zimni** dunyoda tengsiz deb o'ylasam- osmondagi yulduzlarga boqaman.

**Bugun men o'z hissiyotlarimning qiroli bo'laman.**

Bu o'rgangan yangi bilimlarim bilan men kimga murojat qilsam, o'sha odamning his tuyg'ularini tushuna olaman. Men u odamning serzardaligi va qo'polligidan xafa bo'lmayman. Chunki u o'zini tuta bilish sirini bilmaydi. Men uning barcha sovuq muomalasiga chidayman, chunki u ertaga o'zgaradi. Men odam haqida bitta suhbatdan keyin xulosa

chiqarmayman. Besamar uchrashuv, hamsuhbatimning nafrati ertaga menga qaytarilmaydi.

Bugun u oltin arava uchun sariq chaqa ham bermadi, ertaga esa u quruq taxta uchun uyini ham berishga tayyor bo'ladi. Bu sirni bilish katta boylikka eltuvchi kalit.

**Bugun men o'z hissiyotlarimning qiroli bo'laman.**

Odamlarda va o'zimda ro'y beradigan kayfiyat o'zgarishini men endi tushunaman. Bundan buyon men har bir qadamim uchun javobgarlikni his qilaman. Men taqdirim xukmdoriga aylanaman. Bugun men taqdirimning egasiman. Mening kelajagim buyuk savdogar bo'lish.

**Men o'z o'zimning sultonim bo'laman. Men buyuk bo'laman.**

## O'N TO'RTINCHI QISM

### Yettinchi o'rama

#### **Men dunyoning ishlari ustidan kulaman.**

Odam bolasidan tashqari birorta jonzotga kulish imkoniyati berilmagan. Shikastlangan daraxt tanasidan suyuqlik oqishi mumkin. Yovvoyi hayvonlar og'riqdan va ochlikdan yig'lashlari mumkin, faqat odamzodgina kulish baxtiga muyassar bo'lgan. Shuning uchun men bu baxtdan xohlagan paytimda foydalana olaman. Bundan keyin men kulishni o'zinga odat qilib olaman. Men kulimsirab yursam mening oshqozonim yaxshi ishlaydi, men xursand bo'lib yuraman va mening yukim yengil bo'ladi. Men kulaman va mening umrim uzayadi- bu uzoq umr ko'rish siri va men bu sirdan xabardorman. Men dunyoning ishlari ustidan kulaman. Hammadan ko'p men o'z ustimdan kulaman, chunki odam o'zini qanchalik jiddiy ushlasa, shunchalik kulgili ko'rinadi. Men esa bu aql qopqoniga tushishni istamayman. men tabiatning buyuk mo'jizasi bo'lsamda, shu bilan birgalikda men vaqt shamoli uchurib yurgan qum zarrasiman. Men qayerga keldim va qayerga ketaman? Agar menga duch kelgan odam la'natga yoki ko'z yoshiga arzisa, men nima qilishim kerak? Men quyidagi uchta so'zni doimo qaytarib yuraman.

Toki bu so'zlar har doim biror noxush voqea ro'y berganda mening hayolimga kelsin. Qadimdan qolgan bu so'zlar mening hamma vaqt yomon kunlarimdan eson-omon o'tib ketishimga yordam beradi. Bu so'zlar quyidagicha: "Bu kunlar ham o'tadi!".

### **Men dunyoning ishlari ustidan kulaman.**

Bu dunyoning hamma ishlari o'tkinchi. Qachonki men g'amgin bo'lsam, o'zimni yupataman "bu kunlar o'tadi" deb;

Qachonki men omaddan sarxush bo'lsam, bu kunlar o'tishini o'zinga eslataman. Agar kambag'allikdan ezilsam, bu kunlar ham o'tadi deyman. Agar badavlatlik yuki bossa, bu kunlar ham o'tishini o'ylayman. Piramidani qurgan odam qani u, u piramida ichiga ko'milganmi? Piramidaning o'zi ham biror vaqt tuproqqa ko'milmaydimi? Agar bu dunyoda hamma narsa o'tkinchi bo'lsa, men bu dunyoning tashvishlari uchun qayg'urib nima qilaman?

### **Men dunyoning ishlari ustidan kulaman.**

Men bu kunni kulgum bilan to'ldiraman, men bu tunni qo'shig'im bilan bezataman. Men kelajak uchun jonimni jabborga berib mehnat qilmayman, chunki kimning tashvishi ko'p bo'lsa, u g'amgin bo'ladi. Bugungi baxtdan men bugun lazzatlanaman. Axir baxt bu don emas-ku, men uni omborlarda saqlasam, yoki sharbat emas-ku, ko'zalarga quysam. Uni bugun ekish kerak va hosilini ham bugun yig'ishtirib olish kerak. Bundan buyon men faqat shunday qilaman.

### **Men dunyoning ishlari ustidan kulaman.**

Meni kulgim hamma narsani o'z o'rniga qo'yadi. Men o'z omadsizligim ustidan kulaman va u niyatlarim buluti ostida yo'qolib ketadi; men omadlarim ustidan kulaman va ularning haqiqiy narxi ma'lum bo'ladi. Men yovuzlikning ustidan kulaman

va u yomonlik mevalarini keltirmasdan o'radi; men yaxshilikka qo'shilib kulaman va u yanada gullab yashnaydi. Mening tabassumim boshqalarning yuzida tabassum uyg'otsagina, mening har bir kunim unumli o'tadi. Agar men odamlar bilan xushmuomala bo'lmasam, ular mening molimni sotib olmaydilar.

### **Men dunyoning ishlari ustidan kulaman.**

Bundan buyon men faqat baxtdan yig'layman, chunki g'amgin, xafaqon yoki ruhan tushkunlikka tushgan insonning o'rni savdo rastasida emas. Har bir tabassumni oltinga almashtirsa bo'ladi. Har bir yurakdan aytilgan shirin so'zdan shohona qasr qursa bo'ladi. O'z ustimdan va dunyoning ishlari ustidan kulish qobiliyatini yo'qotmaslik uchun men hech qachon keragidan ortiq kibrli, dono va buyuk bo'lmayman. Men umrbod bola bo'lib qolaman, chunki bu xol menga pastdan balandga qarash imkonini beradi. Vaholanki, men dunyoga shunday vaziyatdan qarash imkoniga ega bo'lsam, men hech qachon katta bo'lmayman va belanchakka sig'mayman.

### **Men dunyoning ishlari ustidan kulaman.**

Toki men kular ekanman, men qashshoqlik yuzini ko'rmayman.

Kulgi- bu tabiatning buyuk boyliklaridan biridir va men bundan buyon bu narsaga bepisandlik bilan qaramayman. Agar men kulsam, baxtli bo'lsamgina, omad menga kulib boqadi. Mehnatlarim mevasini ham men faqat baxtiyor bo'lsamgina



tanovul qilish imkoniyatiga ega bo'laman. Omad va muvaffaqiyat nash'asini surish uchun men albatta baxtli bo'lishim kerak, kulgi esa bu ishda menga xizmatkor vazifasini bajaradi.

**Men baxtli bo'laman.**

**Men muvaffaqiyatga erishaman.**

**Men hali dunyo ko'rmagan buyuk savdogar bo'laman.!**

## O'N BESHINCHI QISM

### Sakkizinchi o'rama

**Bugun men avvalgidan yuz baravar ko'proq hurmatga loyiq bo'laman.**

Tut daraxtning bargi odamzodning buyukligi natijasida shoyiga aylanadi. Daraxtning tanasi odamzodning daholigi natijasida mehrobgga aylanadi. Qo'ylarning bir parcha juni odamzodning iste'dodi natijasida shohlar libosiga aylanadi. Agar odam bargning, loyning, daraxtning va junning narxini ming marotaba oshira olsa, nahotki men bu ishni odam deb atalmish va mening nomimni ko'tarib yurgan loy parchasiga nisbatan qila olmayman.

**Bugun men avvalgidan yuz baravar ko'proq hurmatga loyiq bo'laman.**

Men boshoqdagi donga o'xshayman, bu donni uchta narsa kutishi mumkin: Donni hayvonlarga yem qilib berish mumkin, donni yanchib

unga aylantirish mumkin va non pishirish mumkin, yoki yerga ekib, uni bir necha ming barobarga ko'paytirish mumkin. Lekin men bilan don o'rtasida katta farq bor. Don tanlash imkoniyatiga ega emas- uni yem qiladilarmi, non qiladilarmi yoki ekadilarmi? Dondan buni hech kim so'ramaydi. Menda esa tanlash imkoni bor. Men o'z hayotimni tushkunlik va omadsizlik tegirmoniga tashlamayman. Birovlarning istagi bilan mening umrim unga aylanishini xohlamayman. Bugun men avvalgidan yuz baravar ko'proq hurmatga loyiq bo'laman. Don boshoqqa aylanishi uchun uni qorong'i yerga ko'mish kerak. Mening omadsizliklarim, tushkunliklarim, bilimsizliklarim va kuchsizligim- Bu pishib-yetilish uchun zulmat yerga ko'milishimdir. Donning yetilishi uchun yomg'ir, quyosh va iliq shamol kerak bo'lganidek, men orzuyimga yetishim uchun aqlimni va badanimni tarbiyalashim kerak. Yetilish uchun don tabiatning issiq-sovug'iga chidashi kerak. Men esa chidashim shart emas, chunki men o'z taqdirimni o'zim hal qilishim mumkin.

**Bugun men avvalgidan yuz baravar ko'proq hurmatga loyiq bo'laman.**

Buni qanday amalga oshirish mumkin? Men avvalambor bir kunlik, bir haftalik, bir oylik va bir yillik maqsadlarni o'z oldimga qo'yaman. Don o'z qobig'ini yorib chiqishi uchun birinchi bo'lib yomg'ir yog'ib o'tishi kerak. Mening hayotim izga tushishi uchun esa, menda bunga xohish paydo bo'lishi kerak. Men o'z oldimga maqsad qo'yishdan oldin, o'zimning eng yuksak natijalarimni eslayman va bu natijalarni yuzga ko'paytiraman. Mana shu ko'rsatgich kelajak hayotimning normasi

bo'ladi. Men orzularim katta ekanligidan xavotirlanmayman. Chunki oyni mo'ljallab burgutga yetishmoq, burgutni mo'ljallab xarsangtoshga yetishmoqdan yaxshiroq.

**Bugun men avvalgidan yuz baravar ko'proq hurmatga loyiq bo'laman.**

Mening maqsadlarim buyuk, lekin bu narsa meni cho'chitmaydi. Men orzuyimga yetguncha, ko'p marotabalab qoqilishim mumkin. Qoqilgandan keyin men albatta turaman, chunki hamma odamlar ham kerakli manzilga yetguncha, ko'p martalab adashadilar. Faqat, chuvalchang qoqilmaydi, ammo men chuvalchang emasman, o'simlik emasman, qo'y emasman, men- insonman. Boshqalar o'z qorgan loyidan xujra qursin, men esa o'zimmikidan saroy quraman.

**Bugun men avvalgidan yuz baravar ko'proq hurmatga loyiq bo'laman.**

Don yerdan o'sib chiqishi uchun avvalambor quyosh yerni qizdirishi kerak, mening orzularim ro'yobga chiqishi uchun esa, mana shu o'ramalardagi so'zlar mening hayotim mazmuniga aylanishi kerak. Men bugun kechagidan ko'ra yaxshiroq bo'laman. Bugun men mo'ljallagan tog'imda imkonim boricha balandroq ko'tarilaman, ertaga esa- bugungidan balandga chiqaman, indin esa, ertadanda balandroqqa ko'tarilaman.

**Bugun men avvalgidan yuz baravar ko'proq hurmatga loyiq bo'laman.**

Iliq shamol donning pishishiga yordam bergandek, menga ham aytmoqchi bo'lgan so'zlarimni odamlarga yetkazishga yordam beradi va mening orzularim hammaga ayon bo'ladi. Bu so'zlarni bir bor hammaga eshittirib aytganimdan keyin, men ularni qaytarib ololmayman. Chunki men bunday qilsam o'z-o'zimga bevafoqlik qilgan bo'laman. Mayli odamlar mening orzularim ustidan kulsinlar, lekin men baribir orqaga qaytmayman. Mening so'zlarim va natijalarim bir xil bo'ladi.

**Bugun men avvalgidan yuz baravar ko'proq hurmatga loyiq bo'laman.**

Men o'z oldiga past maqsadlar qo'yuvchi jinoyatchi emasman; Omadsiz qila olmaydigan ishni men bajaraman; mening orzularim mening natijalarimdan buyuk bo'ladi; bozordagi ishlarimni natijasi bilan faxrlanmayman; men bir maqsadimga yetsam, ikkinchisini o'z oldimga qo'yaman; mening har bir yangi soatim o'tganidan yaxshiroq bo'ladi; men o'z maqsadlarim haqida dunyoga jar solaman. Shu bilan birgalikda natijalarim haqida hech kimga og'iz ochmayman. Undan ko'ra dunyo meni omadlarimni o'zi ko'rsin va olqishlasin, men esa bu maqtovlarni xotirjamlik bilan qabul qilaman.

**Bugun men avvalgidan yuz baravar ko'proq hurmatga loyiq bo'laman.**

Bir dona dondan bir necha boshhoqlar paydo bo'ladi, bu boshhoqlar bir necha yuz martalab ko'payadi va ular bilan Yer yuzidagi odamlarni to'ydirib bo'ladi. Men shu donchalik ham bo'la olamaymanmi?

**Bugun men avvalgidan yuz baravar ko'proq hurmatga loyiq bo'laman.**

Men bu so'zlarni qayta- qayta takrorlayveraman. Bu o'ramaning so'zlari mening qonimga singib ketaveradi va men o'z buyukligim bilan hammani lol qoldiraman.

## **O'N OLTINCHI QISM**

### **To'qqizinchi o'rama**

Mening orzularim befoyda, mening rejalarim- bor yo'g'i kul, mening maqsadlarimga qo'lim yetmaydi, agar bu ishlarni qilish uchun harakat qilinmasa, bu narsalarning birontasida ma'no yo'q.

**Endi men harakatni boshlayman.**

Bu dunyoda birorta karta bo'lmagan egasini bir qarichga bo'lsada bir ikkinchi joyga ko'tarib o'tgan. Jinoyatni oldini olgan birorta qonunlar majmuasi bo'lmagan. Shu bilan birgalikda bu olamda birorta o'rama bo'lmagan, o'zi biror so'm ishlasa, yoki maqtovga sazovor bo'lsa. Harakat- mana yagona shamchiroq, yonadigan va kartani, pergamentni, ushbu o'ramani, mening

orzularimni, mening rejalarimni va mening maqsadlarimni real kuchga aylantiradigan. Harakat - mening muvaffaqiyatlarimning ozuqasi.

### **Men harakatni boshlayman.**

Men harakat qilishdan qo'rqqar edim va shuning uchun sustkashlik qilar edim. Endi esa mard odamlarning yuragiga olib boradigan sirli yo'lakni topdim. Qo'rquvni yengish uchun ikkilanmasdan harakat qilish kerak ekan va shundan keyin yurak botir bo'ladi. Kattaligi arslonday keladigan qo'rquvni, harakat kichkina chumoliga aylantiradi.

### **Men harakatni boshlayman.**

Bundan keyin men yaltiroq qo'ng'izning sabog'ini unutmayman. Yaltiroq qo'ng'iz faqat uchayotgan vaqtida tovlanadi. Men yaltiroq qo'ng'izga aylanaman va mening nurlanishim hatto kunduzi, quyosh nurida ham namoyon bo'ladi. Mayli boshqalar chiroyli qanotli kapalak bo'lsinlar, ammo ularning hayoti gulning sahiyligiga bog'liq. Men esa yaltiroq qo'ng'iz bo'laman.

Va mendan taralayotgan nur olamni yoritadi.

### **Men harakatni boshlayman.**

Men bugungi ishni ertaga qoldirmayman, chunki erta hech qachon kelmaydi. Mening harakatlarim omad va natija keltirmasa ham men baribir harakatkanaveraman. Mayli men harakatlarim natijasida omadsizlikka uchray va xatolarga yo'l qo'yay. Bu

harakatsizlikdan ko'ra yaxshiroqdir. Men harakatlarim evaziga baxtli bo'la olmasligim mumkindir, lekin men ishlamasam uzumzordagi barcha hosil nobud bo'lishi mumkin.

### **Men harakatni boshlayman.**

Men hoziroq harakat qilaman, harakat qilaman, harakat qilaman. Men bu so'zlarni qayta-qayta takrorlayveraman, har soatda har kuni tinmasdan.

Bu so'zlarni aytish menga nafas olishdek tabiiy bo'ladi va bundan keyingi harakatlarim huddi ko'z ochib yumganday odatiy holga aylanadi. Omadsiz odamlar inkor qiladigan taklifni men qabul qilaman.

### **Men harakatni boshlayman.**

Men bu so'zlarni qayta qayta takrorlayveraman. Uyg'ongan zahotimoq men bu so'zlarni aytaman. Dangasa hali uxlagan paytda men to'shakdan turib ketaman.

### **Men harakatni boshlayman.**

Men Bu so'zlarni takrorlab bozorga kelaman va shu zahotiy oq birinchi xaridorga duch kelaman. Omadsiz odam esa unga rad javobi berishlarini o'ylab yotgan bo'ladi.

### **Men harakatni boshlayman.**

Yopiq eshikka yaqin kelib men bu so'zlarni eslayman. Va eshikni taqillatib ichkariga kiraman. Omadsiz esa tashqarida qo'rquv va hayajon bilan turadi.

### **Men harakatni boshlayman.**

Ko'ngil ko'chasiga kirib qolishim mumkin bo'lganda, men yana shu so'zlarni takrorlayman va o'zimni yovuzliklardan asrayman.

### **Men harakatni boshlayman.**

Ishlarimni ertagacha qoldirish istagi paydo bo'lganda, men yana shu so'zlarni eslayman va savdo qilish uchun harakatni boshlayman.

### **Men harakatni boshlayman.**

Bozorda narxim qanchaligini faqat harakatlarim aniqlaydi. Narximni yanada oshirish uchun harakatlarimni undanda ko'paytiraman. Omadsiz borishga qo'rqadigan joylarga men boraman.

Omadsiz dam olishni mo'ljallayotgan paytda men ishlayman. Omadsiz sukut saqlagan paytda men gapiraman. Omadsiz bir xaridorni chaqiraymi deb o'ylab turgan paytda men o'nta xaridorni chaqiraman. Omadsiz "**kech bo'ldi**" degan so'zlarni aytganda men "**qildim**" degan so'zni aytaman.

### **Men harakatni boshlayman.**

Hozir- bu menda bo'lgan hamma narsa. Dangasa ertaga ishlashni xohlaydi. Men esa dangasa emasman. Zolim ertaga mehribon bo'lmoqchi, men esa zolim emasman. Qo'rqqoq ertaga botir bo'lishni xohlaydi. Men esa qo'rqqoq emasman. Omadsiz ertaga omadli bo'lishni xohlaydi, men esa omadsiz emasman.



### **Men harakatni boshlayman.**

Arslon och qolsa- u ovqat yeydi. Burgut chanqasa suv ichadi. Agar ular harakat qilmasa halok bo'ladi. Men muvaffaqiyatli bo'lishni juda xohlayman. Men baxtdan to'ymadim va xotirjam emasman. Agar men harakat qilmasam, omadsizliklar uyqusiz tunlar va azob-uqubatlarni meni o'z domiga tortadi va men izsiz yo'qolaman. Men buyruq beraman va bu buyruqlarga o'zim bo'ysunaman.

### **Men harakatni boshlayman.**

Omad meni kutib turmaydi. Agar men sustkashlik qilsam, u boshqa birov bilan nikohdan o'tadi-yu, meni butunlay tark etadi.

Faqat hozirgi vaqt borva faqat **HAZRATI INSON** atalguvchi men borman.

### **Endi men harakatni boshlayman.**

## O'N YETTINCHI QISM

### O'ninchi o'rama

Qayg'uga botganda yoki baxtsizlikka uchraganda xudoga sig'inmaydigan e'tiqodsiz odamlar ham bormikan bu dunyoda?

O'lim bilan, tushunib bo'lmaydigan sirlar bilan yoki dahshatli voqealar bilan yuzma-yuz kelganda qo'rquvdan chinqirib yubormaydigan kimsa bormikin?

Dahshatga uchraganda ovoz berishga majbur qiladigan chuqur hissiyot qayerdan paydo bo'lar ekan?

Biror kishining yuzini oldida qo'lingizni silkitsangiz, u odam bexosdan ko'zini pirpiratadi. Tizzasiga ursangiz oyog'i sakrab ketadi. Qo'rqitsangiz, "Ey Xudoyimey" deyishga qandaydir kuch majbur qiladi.

Tabiatning bu buyuk sirini tagiga yetish uchun dindor bo'lish shart emas. Yer yuzidagi barcha tirik jonzotlar, jumladan inson ham qo'rqan paytida yordamga chaqirish xususiyatiga ega.

Nima uchun bu xususiyat bizga berilgan?

Bizning bu chinqirig'imiz ibodatning bir ko'rinishi emasmikan?

Tabiat qonunlariga bo'ysunuvchi bu dunyoda qo'zichoq ham, qush ham odamzod ham kimdandir panohtaydi. Demak bu dunyoni qandaydir **BUYUK KUCH** boshqarib turibdi va biz

unga murojat qilganda, u bizni eshitadi va yordamga shoshadi. Demak, bundan keyin men doimo ibodat qilaman va duo o'qiyman. Lekin, bu duolarim bilan yordam so'ramayman, yo'q, menga to'g'ri yo'l ko'rsatishlarini so'rab iltijo qilaman. Men davlat so'rab ibodat qilmayman. Men hizmatkordan ovqat keltirishni so'ramayman. Karvonsaroy egasidan menga xona berishini iltimos qilmayman. Men hech qachon oltin, sevgi, sog'liq arzimas g'alabalar, shon-shuhrat, omad va baxt so'ramayman. Men faqatgina mana shu narsalarga eltuvchi yo'lni menga ko'ratishlarini so'rab duo o'qiyman va mening duolarim ijobat bo'ladi. Duolarim ijobat bo'lmasligi ham mumkin, lekin shuning uchun shuning o'zi ham ibodatlarimga javob emasmikan? Tasavvur qiling, bolaning qorni och va u otasini ovqat bilan kelishini kutayabdi, lekin otasi kechikyapti. Ota bolasini esdan chiqardi degan gapmi bu?

Menga yo'l ko'rsatishlarini iltijo qilib duo qilaman, men savdogarlarday duo qilaman: Yaratgan egam, menga yordam ber. Men bugun bu dunyoga yalang'och va yolg'iz kirib keldim. Agar sening qo'ling menga yo'l ko'rsatmasa, men omadga va baxtga eltuvchi yo'ldan adashaman. Men oltin ham shohona libos ham so'ramayman. mening qobiliyatlarimga mos imkoniyat ham so'ramayman, aksincha mening imkoniyatlarimga mos keluvchi qobiliyatim bo'lishini o'rgatuvchi yo'lga meni boshla. Parvardigorim, Sen arslonga va burgutga o'zining tishlari va tumshug'i evaziga kurashishni va g'alabaga erishishni o'rgatding. Menga so'zlardan iborat o'qlar bilan ov qilishni va

muhabbatim bilan g'alaba qozonishni o'rgat. Men odamlar orasida arslon bo'lay, bozor maydonida burgutga aylanay. Omadsizliklar va qiyinchiliklarni sabr-bardosh bilan yengishga yordam ber, lekin g'alabaga erishganimda, uning nash'asini surishga imkon ber. Mening oldimga shunday vazifalar qo'y-ki, boshqalar bu vazifalar oldida chekinsin. Omadsizliklardan omad urug'ini qidirib topishni menga o'rgat. Mening ruhimni toblaydigan sinovlarni menga uzat, lekin shu bilan birgalikda, yo'limda duch keladigan qiyinchiliklardan qo'rqmasligim uchun mardlik ham ato qil. Maqsadlarimga erishish uchun menga vaqt ber, shu bilan birga har bir kunimni hayotimning so'nggi kunidek yashashga yordam ber. Odamlarda ishonch uyg'otuvchi so'zlarni menga o'rgat ammo g'iybatchilik va tuhmatchilik qilishdan meni o'zing asra. Qayta-qayta harakat qilish odatini menga o'rgat. Imkoniyatlarni ilg'ab olish uchun meni ziyrak qil, lekin kuchlarimni behuda sarflamasligim uchun meni kamtarin qil. Yaxshi odatlar bulog'ida meni cho'miltir, yomon odatlarim shu buloqning ostiga cho'kib ketsin. boshqalarning kamchiligiga meni chidamli qil. Menga uqubatlar yubor, bu narsaning o'tkinchi ekanligini yana bir bor his qilay, lekin meni yorlaqagin. Agar shunga bugun arzisam. Rabbim, bu narsalar faqat Sening xohishing bilan bo'ladi. Men ishkomda qolib ketgan kichkina va yolg'iz uzum donasidekman. Lekin baribir sen meni boshqalardan ayricha qilib yaratding. Shubha yo'qki , sen men uchun ajoyib joy ham tayyorlab qo'ygansan. O'zing menga imkon ber. Menga yordam ber. menga yo'l

ko'rsat. Dunyo uzumzoriga mening urug'imni ekkanda meni qanday tasavvur qilgan bo'lsang, men shunday bo'lay **ALLOHIM!!!**

Kamtarin savdogarga yordam ber!

**O'zing qo'lla meni Parvardigorim!**

### **O'N SAKKIZINCHI QISM**

Xafid bo'shab qolgan saroyida o'ramalarning orqasidan kelishi kerak bo'lgan odamni haliyam kutardi. Sadoqatli hisobchisining jamiyatida qariya fasllarning almashishini kuzatib yashardi. Qarilik uni hamma ishlardan uzoqlashtirgan, u yopiq bog'ida faqat kutish bilan band edi. U kutardi. Savdo imperiyasini tarqatib, boyliklarini bo'lib bergandan so'ng uch yil o'tdi. O'sha kunlarning birida Damashqqa sharqiy cho'l tomonidan ko'rimsizgina cho'loq odam kirib keldi va to'g'ri Xafidning saroyiga qarab yo'l oldi. Eshik yonida uni shirinsuhan Erasmus kutib oldi. "Xo'jayining bilan gaplashib olishim kerak"-dedi mehmon. Notanish odamning tashqi ko'rinishi shubhali edi. Yirtilgan oyoq kiyimi ip bilan bog'langan, oftobda qoraygan oyoqlarini yara-chaqalar qoplagan, tuya junidan to'qilgan belbog'i titilib ketgan edi. Uzun sochlari taroq ko'rmagan, quyoshdan qizargan ko'zlari ichidan yonib turganday edi. Erasmus eshik dastagini qattiq ushlab turardi: "Mening

xo'jayinim senga nima uchun kerak?" Notanish odam yelkasidan xaltasini oldi va iltijo bilan qo'llarini Erasmusga uzatdi: "O'tinaman sendan, ey mehribon odam, xo'jayining bilan meni uchrashtir. Mening niyatlarim holis va men tilanchi emasman. U mening so'zlarimni tinglasin, agar so'zlarim unga yoqmasa, men darhol ketaman". Shubhalar iskanjasidan chiqmagan Erasmus ikkilanganicha eshikni ochdi, u odamni orqasidan yurishga undadi va tez-tez yurib bog' tomon ketdi. Mehmon oqsaganicha uning ortidan yurdi. Xafid bog'da mudrab o'tirardi. Erasmus unga yaqinlashib astagina yo'talib qo'ydi. Xafid qimirlagach, Erasmus yana yo'taldi, shundan keyin chol ko'zini ochdi.

- Taqsirim, kechirasan, lekin sening oldingga bir odam keldi.

Xafid o'tirib oldi va diqqat bilan notanish odamga boqdi. U Xafidga ta'zim qilib so'radi.

- Dunyodagi eng buyuk savdogar deb seni aytadilarmi?

Xafid qoshlarini chimirib, lekin tasdiqlovchi ishora qildi.

- Meni avvallari shunday deb atashardi. Hozir esa bu toj mening qarigan boshimda yo'q. Mendan nima istaysan o'zi?

Notanish odamning bo'yi past edi. U Xafidning yonida uyali turardi va qo'li bilan ko'kragini uqalardi. Axiyri javob berdi: - Mening ismin Savl, men Ierussalimdan o'z shahrim Tarsusga qaytyapman. Mening aftu angorim seni hayratlantirmasin. Men qaroqchi ham, gado ham emasman. Men Tarsusning, ham

Rimning fuqarosiman. Men yahudiyman buyuk Gamalielning shogirdiman. Bazilar meni Pavel deb ham ataydilar. Bu gaplarni aytayotganda erkak chacharchaganidan chayqalib turardi. Xafid uni o'tirishga taklif etdi. Pavel boshini chayqab tik turaverdi.

-Men sendan madad va yordam so'rab keldim, bu narsalarni faqat sen menga bera olasan. Tariximni aytishga ruhsat ber, taqsirim.

Mehmonning orqasida turgan Erasmush norozilik bildirib bosh chayqadi, lekin Xafid unga e'tibor bermadi. U oromini o'g'irlagan kishiga diqqat bilan qaradi-yu, gapirishga ruhsat berdi.

-Boshimni ko'tarib turib seni tinglashga men anchayin qarilik qilaman. Shuning uchun oyoq tomonga o'tir va hikoyangni boshla.

Pavel xurjunini yerga qo'ydi va cholning yoniga tiz cho'kdi.

-To'rt yil muqaddam Ierussalimda qatl etilgan avliyo odam Stefanning o'limiga guvoh bo'lganman. U yahudiylar sinedrioni tomonidan, bizning Xudomizni behurmat qilgani sababli toshbo'ron qilishga mahkum etilgandi. Xafid hayron bo'lib uning gapini bo'ldi.

-Bu voqeaning menga nima dahli bor?

Pavel qariyani tinchlantirmoqchi bo'lganday qo'lini ko'tardi.

- Men hozir hammasini tushuntiraman. Stefan Iso degan odamning tarafdori edi. Stefanning qatlidan bir yil oldin

Rimliklar Isoni xochga tortib qatl qilgan edilar, chunki u imperiyaga qarshi odamlarni kurashga chorlagan edi. Stefan Isoni yahudiylarning payg'ambarlari aytib ketgan Messiya deb atashga jur'at etdi. Yana u ruhoniylar va rimliklar birlashib bu Xudoning bandasini o'limga hukm qilganlikda aybladi. Bu ayblovni donishmandlarimiz ko'tara olmadilar va Stefanni o'limga hukm qildilar. Men ham ular orasida edim. Bosh ruhoniy mening yoshligimni va dinga munosabatimni inobatga olib meni Damashqa yubordi. Men u yerda Isoning tarafdorlarini topishim va tutib, Ierussalimga jazolash uchun olib kelishim kerak edi. Avval aytganimdek bu voqealar to'rt yil avval bo'lgan edi. Erasmus Xafidga qaradi va uning yuz ifodasini ko'rib hayratga tushdi. Vafodor xisobchi qariyani necha yillardan beri bunday ahvolda ko'rmagan edi. Bog'ning sokinligini faqat favvoraning shildirashi buzardi. Pavel so'zida davom etdi.

- Damashqqa ketayotgan paytimda qilishim kerak bo'lgan xunrezlik haqida o'ylab borayotgan edim. Birdaniga osmon yorishib ketdi va men o'zimni bilmay u yerga yuztuban yiqildim. Ko'zim ko'rmay qoldi. Lekin qulog'im quyidagi so'zlarni juda yaxshi eshitdi:

"Savl, Savl, nega sen meni haydamoqchisan?"

"Sen kimsan?" -deb so'radim va ovoz javob berdi.

"-Sen ta'qib qilayotgan Isoman. Sen turgin va shaharga bor, u yerda nima qilishing kerakligini aytishadi".



Men turdim mening hamrohlarim meni qo'limdan ushlab Damashqqa olib bordilar. U yerda Isoning tarafdorlarining uyida uch kun yashadim, lekin na suv icha olardim na ovqatlana olardim. Mening oldimga Ananaiya ismli odam keldi, unga men haqimda vahiy kelgan ekan. U qo'lini mening ko'zimga qo'ydi va ko'zlarim yana ko'ra boshladi. Undan keyin men ovqatlana boshladim kuchim qaytib keldi. Xafid o'rnidan turdi

- Keyin nima bo'ldi?

- Meni sinagogaga keltirishdi, meni ko'rganda Isoning tarafdorlari qo'rqib ketishdi, axir men ularni ta'qib etuvchi edimku. Meni so'zlarim ularni hayratga soldi, chunki men Isoni haqiqatdan ham Xudoning payg'ambari deb aytdim. Lekin menga hech kim ishonmadi. Axir Ierussalimdagi talafotlarni men uyushtirmagandimmi?

Mening o'zgarganimga hech kim ishonmadi. Ko'p kishilar meni o'ldirmoqchi ham bo'ldilar. Shuning uchun men devorlar osha qochdim va Ierussalimga qaytdim. Damashqdagi voqealar Ierussalimda ham qaytarildi. Isoning birorta ham tarafdori men bilan birlashishni xohlamas edi, vaholanki, mening Damashqdagi vaazlarim hammaga ayon bo'lgan edi. Shunga qaramasdan men Iso haqida baribir hammaga aytishdan charchamasdim, lekin bu befoyda edi. Hamma joyda menga yovqarash qilishardi. Bir kuni men Ehromning oldiga kelganimda o'sha ovoz yana eshitildi.

- U nima dedi? - o'zini tuta olmadi Erasmus. Xafid kulimsirab qari do'stiga qaradi va Pavelga hikoyasini davom ettirishini ishora bilan bildirdi.

- Ovoz aytdi sen to'rt yildan beri harakat qilasan-u, lekin juda kam odamlarni ishontirding.

Hatto Xudoning gaplarini ham odamlarga sota bilish kerak, aks xolda ular senga quloq solishmaydi. Meni tinglashlari uchun men rivoyatlar bilan gapiraman. Damashqqa qaytgan va buyuk savdogar deya tanilgan insonni top. Mening so'zlarimni dunyoga yetqazmoqchi bo'lsang buni qanday qilish lozimligini undan o'rgan.

Xafid Erasmusga qaradi. Bu nigohda savol mujassam edi.

Bu o'shami?

Buyuk savdogar mehmonga yaqinroq kelib qo'lini uning yelkasiga qo'ydi.

- "Menga Iso haqida gapirib ber",

Iso haqida gapirgan sayin Pavelning ovozi jaranglab chiqardi. U bu ikki odamga yahudiylarni baxtli va erkin hayotga eltuvchi Messiya haqida gapirardi, avliyo Ioann va tarix sahnasida paydo bo'lgan Iso ko'rsatayotgan mo'jizalar, uning odamlar bilan suhbatlari, o'liklarni tiriltirgani, sarroflar bilan munosabati, uning xochga tortilishi, ko'milishi va qayta tirilishi haqida gapirib berdi.

Hikoyasining ohirida Pavel xurjunidan qizil rangli kiyimni olib Xafidning tizzasiga qo'ydi.

- Taqsir Iso yuz o'girgan boyliklardan sen foydalana olding. U hamma narsasini, hatto hayotini ham dunyoga taqdim qildi. Rim askarvari xoch yonida qur'a tashlab bu yopinchiqni talashishdi. Mening qo'limga bu yopinchiq ko'p azobli izlanishlardan keyin tushdi. Xafidning ranglari oqarib ketdi.

U titrayotgan qo'llari bilan qon izi bo'lgan kiyimni silardi. Xo'jayinning bu ahvolidan xavotirga tushgan Erasmus unga yaqinroq keldi. Xafid kiyimni qo'lida aylantiraverdi toki matoga tikilgan kichkina yulduzchani ko'rmaguncha..., bu o'sha... Tolaning belgisi edi, Patos sotib oladigan yopinchiqlarning biri. Yulduzchaning yonida esa to'rtburchak ichidagi aylana...Patosning belgisi.

Pavel va Erasmus Xafidga qarab turishardi. U yopinchiqni yuziga bosdi va boshini quyi soldi. Axir tola minglab yopinchiqlar tikdi. Patos esa uni necha yillar davomida sotdi. Yopinchiqni qo'lidan qo'yvormay Xafid xirillagan ovozda so'radi:

- Isoning tug'ilishi haqida nimani bilasan?

- U bu dunyodan ketayotganda qariyb hech narsasi yo'q edi. **U Vifleemdagi g'orda tug'ilgan** . Ikki erkak goh kulimsirayotgan, goh yig'layotgan Xafidga hayron bo'lib qarashardi. U ko'zidagi yoshlarni sidirganicha so'radi.

-Bola tug'ilgan joyning ustida yorqin yulduz porlab turganmidi?

Pavel javob berish uchun og'iz juftladi-yu, lekin gapira olmadi, bunga xojat ham qolmagandi. Xafid Pavelni quchoqlab oldi, ularning ko'z yoshlari aralashib ketdi. Nihoyat qariya o'rnidan turdi va Erasmusni chaqirdi.

-Vafodor do'stim, bor, minorachaga chiq va sandiqchani olib krl. Biz kutgan savdogar keldi.

**TAMOM**

MOTIVATIONALUZ

## XULOSA

Aziz kitobxon bu kitobda qadimiy hikoya keltirilgan bo'lib unda yozuvchi o'ramalar vositasida insonni ong ostini dasturlaydigan affirmatsiyalarni o'quvchiga taqdim qilgan. Bu har kunlik takrorlash kerak bo'lgan so'zlar sehri tarzda insonni o'z-o'zidan muvaffaqiyat tomon yetaklaydi. Barcha buyuk va muqaddas kitoblarda yozilganidek inson nimagaki ishonsa shu narsa uning hayotida paydo bo'ladi. Ya'ni so'z vositasida u hayotiga baxt omad va muvaffaqiyat olib kela oladi. Uning dasturlangan ong osti magnit kabi bu narsalarni o'ziga torta boshlaydi. Bu kitob qo'lingizda ekan demak siz oddiy inson emassiz siz izlanuvchan, o'z-o'zini shakllantirib boruvchi 2% insonlar safiga kirasiz. Siz bu kitobni o'qib bo'lgan ekansiz demak qo'lingizga farovonlik xazinasini tushibdi. Undan unumli foydalaning har kuni affirmatsiya so'zlari ya'ni o'ramalardagi so'zlarni takrorlab o'zingiz buni sinab ko'rishingiz mumkin. Bunga juda kam vaqt sarflaysiz va natija esa kutganingizdan ham a'lo bo'ladi. Omad yor bo'lsin **AZIZ KITOBXON.**

## MUNDARIJA

Birinchi qism.....	3
Ikkinchi qism.....	8
Uchinchi qism.....	14
To'rtinchi qism.....	23
Beshinchi qism.....	26
Oltinchi qism.....	30
Yettinchi qism.....	35
Sakkizinchi qism.....	38
To'qqizinchi qism.....	42
O'ninchi qism.....	46
O'n birinchi qism.....	49
O'n ikkinchi qism.....	53
O'n uchinchi qism .....	57
O'n to'rtinchi qism.....	62
O'n beshinchi qism.....	65
O'n oltinchi qism.....	69
O'n yettinchi qism.....	73
O'n sakkizinchi qism.....	77
Xulosa.....	85

MOTIVATIONALALUZ

MOTIVATIONALUZ

**Bizning manzil: (telegram)@Motivationaluz**